

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI**

**KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Pedagogika fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ p.f.n.,dots. Nurullaeva Sh.O'

“ \_\_\_\_ “ \_\_\_\_\_ 2018 y.

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ixtisosligi talabasi

**SAMADOVA FARANGIZNING**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISI SHAXSINI  
SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONA VA O'QITUVCHI HAMKORLIGI**

mavzusidagi bakalavr darajasini olish uchun yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Imiy rahbar: dots. N.Oripova

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi”

kafedra mudiri, p.f.d. R.D.Shodiyev

\_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018

**QARSHI – 2018**

## MUNDARIJA:

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I BOB. O‘QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA O‘QITUVCHI VA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI</b> .....	8
1.1. O‘quvchi shaxsini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish-pedagogik muammo sifatida .....	8
1.2. Shaxs hamda hamkorlik tushunchasining mazmuni va mohiyati .....	19
1.3. O‘quvchi shaxsini shakllantirishda sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari mazmuni.....	25
<b>II BOB. O‘QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI</b> .....	36
2.1. Ota-onalarga bola tarbiyasiga oid bilimlar berish shakllari.....	36
2.2. Sinf dan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchi shaxsini shakllantirish yo‘llari .....	43
2.3. Muammoga doir tajriba-sinov ishlari tahlili .....	52
<b>Umumiy xulosalar</b> .....	57
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b> .....	59
<b>Ilovalar</b> .....	61

## K I R I S H

**Mavzuning dolzarbligi:** Har jihatdan barkamol shaxslarni tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan dolzarb vazifa ekan, avvalo bunday shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazish uchun boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan murg'ak qalb egalarilarida mustaqil fikrlash, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini anglashga o'rgatish lozimki, shu ruhda tarbiya topayotgan yosh avlod kelajakda mamlakat, xalq manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan yetuk insonlar bo'lib yetishadilar. Bunday shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazishda ta'lim va tarbiya jarayonining almashinib bo'lmas o'rni bor. Chunki aynan ta'lim tarbiya jarayonidagina o'quvchining dunyoni, o'z-o'zini anglashi va shaxs sifatida shakllanish jarayoni rivojlanib boradi. Shuningdek, maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan yana biri o'quvchini ijtimoiy faoliyatga tayyorlash, jamiyatning faol a'zosiga aylantirish, kasbga yo'naltirishdan iboratdir. Darhaqiqat, ijtimoiy faol shaxslargina mamlakatimiz ravnaqini yuksaklarga ko'tara oladi, uning rivojlanishi yo'lida tinmay mehnat qilib, o'z irodasi va vijdonini namoyon eta oladi.

Mamlakatimizning birinchi prezidenti I. Karimov o'z asarlarida yosh avlod tarbiyasi va oila masalalariga katta e'tibor berar ekanlar, oilaning tarbiya beradigan maskanlar orasida eng ulug'i, qadrli ekanligiga oid fikrlari alohida ahamiyatga ega. "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog' ekanligini tan olishimiz darkor" [3; 45]. Mustaqillik yillarida respublika hukumati va Prezidenti I. Karimov tomonidan oilaga ko'rsatilayotgan etibor, yillarga maqom berilayotganda ("1998-yil oila yili", "2012-yil mustahkam oila yili" va nihoyat "2014-yil sog'lom bola yili") oilani mustahkamlash, nikohni qadriyat sifatida e'zozlashga qaratilgan chora-tadbirlar tom ma'noda yurtimizda oila va farzandlar hukumatning doimiy g'amxo'r ekanligidan dalolatdir.

Darhaqiqat, oila – tarbiya o‘chog‘i, jamiyat negizidir. Har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil topadigan, mafkuraviy va ma’naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O‘zbek oilasi o‘zida ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir. Agar oiladagi muhit sog‘lom bo‘lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga shu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqlol g‘oyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo‘ladi.

1998 yilning Oila yili» deb e‘lon qilinishi va shu yilning o‘zida Oila kodeksining qabul qilinishi hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor tashkil etilgan Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazining maqsadi ham davlatimizning oilani har tomonlama mustahkamlash, himoya etish borasidagi siyosatga hamohang bo‘lib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an‘analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilani mustahkamligi, barqarorligini ta‘minlash, oila a‘zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini: ilmiy o‘rganish, oilaviy hayotga bog‘liq, muammolarni tadqiq etish va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishdan iboratdir.

Ma’lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida bolaning qobiliyatlari tez va samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, bolani oila va maktabdan boshqa qayerda ham faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish mumkin. Oila va maktab hamkorligidagi tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati shundan iboratki, kichik bolalik paytida ota-ona va maktabdan egallangan bilimlar uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Huddi shuning uchun ota-onalarning maktab bilan hamkorligi oqilona tashkil etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammolaridandir.

Ota-ona va maktab hamkorligida tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarning muhim jihatlaridan biri - bu o‘quvchi tarbiyasida yagona talabni yo‘lga qo‘yishdir. Qachonki, har ikkala tarafning maqsadi va ishonchi bir xil bo‘lsagina o‘quvchi tarbiyasida kutilgan samaradorlikka erishish mumkin. Bu ishlar shubhasiz, sinf

rahbarining faoliyati bilan izohlanadi. Ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etishda sinf rahbaridan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay ishlashni taqozo etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, ushbu mavzu bugungi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biridir. Shu bois biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsini shakllantirishda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi”** deb nomladik.

**Tadqiqotning maqsadi** – boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsini shakllantirishda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligining nazariy asoslari va tizimini ishlab chiqish hamda to‘plangan ma’lumotlar asosida amaliy tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning obyekti** – dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti** – o‘quvchi shaxsini shakllantirishning mazmuni, ota-ona va o‘qituvchi hamkorligini ta’minlash shakl-usullari, vositalari, yo‘llari.

**Tadqiqotning ilmiy farazi shundan kelib chiqadiki, agar:**

- boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsini shakllantirishda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligini ta’minlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslab berilsa;

- dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsini shakllantirishning nazariy jihatlari ishlab chiqilsa;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsini shakllantirishning samarali yo‘llari, usullari aniqlansa hamda o‘quvchilarga singdirilsa ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi va ilmiy faraziga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:**

1. Shaxs hamda hamkorlik tushunchasining mazmuni va mohiyatini tahlil qilish;

2. Shaxsning psixologik xarakteristikasini o‘rganish;

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsini shakllantirishning samarali usul va vositalarini aniqlash;

3. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqish .

**Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsini shakllantirishning nazariy asoslari;
2. O'quvchi shaxsini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.
3. Bolang'ich sinf o'quvchisi shaxsini shakllantirishda ota-ona va o'qituvchi hamkorligini ta'minlashning yo'llari va usullari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsini shakllantirishda ota-ona va o'qituvchi hamkorligini ta'minlash muammosi nazariy jihatdan asoslandi.
2. O'quvchi shaxsini shakllantirishning mavjud ahvoli va o'ziga xos xususiyatlari
3. Ota-ona va o'qituvchi hamkorligini mavjud ahvoli.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijasida pedagogika fani boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar, pedagogik g'oyalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan boyitildi. Ushbu metodika va nazariy yondashuvlardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, darslik mualliflari, boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari, o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari foydalanishlari mumkin.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Pedagogika fani konsepsiyasi, Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi, Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari, shuningdek, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar, o'quv metodik majmualar.

**Tadqiqot metodlari:** Mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, test, og'zaki so'rovnoma.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Mazkur tadqiqot ishi kirish, ikki bob, olti paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, uning asosiy matni 60 betni tashkil etadi.

## **I BOB. O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHI VA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. O'quvchi shaxsini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish-pedagogik muammo sifatida**

Mustaqillik yillarida har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi davlatimiz va hukumatimizning diqqat markazida bo'lib keldi. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rnini va ta'siri beqiyosdir. Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar –yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir" [3; 121].

Darhaqiqat, oila muqaddas dargoh, unda boladagi barcha yuksak fazilatlar: mehr-oqibat, hamdardlik, saxiylik, mehmondo'stlik, vafodorlik, sabr-bardosh, e'tiqod, vatanparvarlik, kattalarga hurmat kabi insoniy to'yg'ular shakllanadi, qaror topadi. Hech bir tarbiya obyekti bolaga oilachalik ta'sir ko'rsata olmaydi.

Bugungi kunda bola tarbiyasida maktab va oila hamkorligini tashkil etish dolzarb pedagogik muammo hisoblanib, bunda ota-onalar, sinf rahbarlari, va mahallaning roli va o'rnini beqiyosdir. Avvalo hamkorlik natijasida bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hamdardlik, do'stlik, mehribonlik, saxiylik, kattalarga hurmat kabilar shakllantirib borilishi hamda ularning aqliy, estetik, jismoniy tarbiyalarini birgalikda olib borilishi davr talabidir. Zero, biz tarbiyalayotgan bolalar axborot asri qurshovida yashamoqdalar. Tevarak-atrofdagi tarqatilayotgan axborotlar bolalar ongiga ba'zan ijobiy, ba'zan esa salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois ota-onalar, sinf rahbarlaridan yoki mahalladan bu masalaga jiddiy yondoshishlari talab etiladi. Bunda ular quyidagilarga etibor qaratishlari lozim:



1. Jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor berishlari; (ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni va uyquni to'g'ri tashkil etish va boshqalar)

2. Ma'naviy tarbiyani bola ongiga singdirishlari; ( Bunda bolaga Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari, davlatimizning ramziy belgilari haqida ma'lumot berish, mustaqillik, Vatan haqidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an'analarimizni o'rgatish kerak bo'ladi)

3. Bolada axloqiy sifatlarni muntazam shakllantirishi; (Bunda kattalarning o'rnak va namuna ko'rsata olishi muhim o'rin tutadi. Zero, axloq kishilarning yurish-turishi, hatti-harakati va muomalasida namoyon bo'ladi, deb bejizga aytilmagan. Odob-axloqli farzand ota-onaning yuzi hisoblanadi)

4. Yosh avlodga estetik tarbiya berishni yo'lga qo'yish; (Bunda oila davrasida qo'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hokozolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirish jihatlardir)

5. Bolada mehnatga ishtiyoq va iqtisodiy tarbiyani shakllantirish; (Bunda ota-onalar bolaga boshqalarning mehnatini qadrlash, mehnat natijalarini ehtiyot qilish, mehnatning insonga farovon hayot olib kelishini tushuntirishlari lozim bo'ladi. Mehnat bolalarda saranjom-sarishtalik, maqsad sari intilish, sabr -bardosh kabi xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Mehnat tarbiyasi ko'pincha iqtisodiy tarbiya bilan birgalikda olib boriladi. Bozor iqtisodiyoti davrida bolalarga iqtisodiy tarbiya berish muhim ish hisoblanadi. Chunki, oiladagi tejamkorlik, iqtisod uning farovonligi omilidir). Umuman olganda oilada bolalarga tarbiya berishda ota-onaning bola tarbiyasiga bo'lgan e'tibori, oilaviy ishlarga javobgarligi, axloqi, muomalasi, asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekona tarbiyada bola tarbiyasida mehnat va turmushdagi ijobiy milliy an'analar katta rol o'ynaydi. Uzoq tarixga ega bo'lgan mehmondo'stlik an'anasi keyingi paytlarda ijtimoiy tushuncha va shakllar bilan boyib bormoqda. Yosh

avlodni tarbiyalash - murakkab va ko'p qirrali jarayon. Darhaqiqat, yoshlarni har tomonlama, ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok qilib tarbiyalash shu kunning muhim va dolzarb muammolaridan biriga aylanib qoldiki, bu davr va bugungi turmushimizni taqozosidir. Inson va uning baxt-saodati haqida, uning qadryatlari haqida g'amho'rlik qilish, qayg'urishni xayriyatki, hechdan ko'ra kech bo'lsada tushunib angladik. Bu yo'qotib qo'ygan milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz yana qaror topdi. Bu albatta kelgusi avlod uchun katta baxt.

Oila jamiyatning ajralmas zarur qismidir. Unda inson dunyoga keladi. Shu paytda oila insoniyatning uzluksiz naslini davom ettiruvchi bo'lib qolaveradi. Shundan kelib, oila ikkita ulkan ijtimoiy vazifani farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga to'g'ri tarbiya berishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Chunki oilada katta yoki kichik narsa bo'lmaydi. Hamma narsa, xatto eng oddiy bo'lib ko'ringan oilaviy munosabatlar bolaga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rostgo'ylik, samimiylik, sadoqatli, shirinsuhan bo'lish bola kamolatida beqiyos hayotiy muhim vositadir. Bu borada axloq-odobga oid "Hadis" namunalarida shunday deyiladi. Gaplarning yomoni bu yolg'onchilikdir. Yolg'onni hazil bilan han jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Ota o'z bolalariga biron narsani va'da qilib so'ng uni bajarmay qo'ymasin! Rostgo'ylik ezgulikka boshlaydi, yovuzlik esa jahannamga. Rostgo'y odamga yaxshi baho, yomon odamga yomon baho beriladi. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi. Oilada yoshlarga yaxshiroq ta'sir ko'rsatish uchun avvalambor ularni sevish va hurmat qilish lozim. Chunki kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha bolalar ularni seva olgan hurmat qila olganlarning qadrlaydilar, bergan maslahat va yo'l-yo'riqlarning, turli topshiriqlarni bajonidil ado etadilar. Zero ota-onaning mehr-muhabati, chinakam hurmati bolalarda eng go'zal axloqiy tuyg'ularni, ayniqsa qadryatni his qilishda yordam beradi. Bu esa unda kattalar orasida ham kamyop bo'lib qolgan insoniylik sifatlardan hisoblanadi. Bolaning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ko'proq ota-onasi va o'z oilasiga hamda unda tarkib topgan muhitga bog'liq." Bola ota-

onasidan qayerga ortib boradi” degan gap ayni haqiqat. Demak, farzandlar ota-onalarini davomchilaridir [23; 141].

Yusuf Xos Xojib “oiladagi” eng ulug` fazilat ezgu qiliq va go`zal hulqdir. Ikkinchisi rostlik, uchinchisi hayot hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa kishi baxtiyor bo`ladi, qut iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kishining hulqi go`zal bo`lsa uni barcha xalq sevadi.”Xulqi yuz bo`lgan kishiga to`rdan joy tegadi” - degan edi [23; 155].

Oilada bola tarbiyasi xususida gapirilganda yuqorida eslatib o`tganimizdek, uning asosiy manbasi muhabbat, ishonch, o`zaro hurmatni tashkil qiladi. Hech kimga sir emaski oilaning ko`rki ham totuvligi ham bekamu ko`stligi ham farzandlarning qobilu mo`minligi ham asosan ana shu allomamizning onalik mahoratiga, ayollik nozik qalbiga, yuksak hayosiga, qaynoq mehru muhabbatiga bog`liqdir.

Oilda ota-onaning shu oiladagi kattalarni yurish turishidan tortib so`z madaniyati, kiyinishi, kishilar bilan muomalasi, hatto atrof-muhitga munosabati va shu singari oddiy bo`lib ko`rinadigan holatlar ham bola tarbiyasiga katta ta`sir qiladi. Hozirda yoshlarni yetuk kishilar qilib tarbiyalash, ishligiga e`tibor keng tus oldi. Chunki jamiyatimizning kelgusi shu yoshlar qo`lida. Yoshlarni axloqan pok, jismonan sog`lom, yetuk kishilar qilib tarbiyalash oilaning oldiga qo`yilayotgan eng muhim talablardan biridir. Buning uchun har bir ota-ona o`z farzandining ezgu maqsadga intiluvchan, kattalarni e`zozlaygigan kichiklarga muruvvatli, o`qish va ishda matonatli qat`iy, tashabuskor, uyushqoq, qiyinchiliklardan qo`rqmaydigan kishilar qilib tarbiyalashlari lozim. Ayniqsa, oilada katta yoshli bolalar bilan to`g`ri munosabatda bo`lish juda muhim ahamiyatga ega. Bola ulg`aygan sari kattalar buyrug`ini yoqtirmaydigan bo`lib boradi. Bu buyruq ko`pincha qarshilik ko`rsatish, xatto oqilona talablarni bajarishdan bosh tortish xolarlarini ham keltirib chiqaradi. Shunday paytlarda bolaga muomala tarzini o`rgatish lozim. Buyruq berish o`rniga ishontirish usulini qo`llash kerak, toki ana shu bola shu ishni qilishni shartligini tushinsin. Ana shunda bola har bir ishni ongli ravishda bajarishga tushunsin. Agar katta yoshdagi bolaga pand-nasixat qilinaversa uning g`ashiga

tegishi mumkin. Shunday hollarda pedagogik usulga murojat qilinsa yanada yaxshi bo`ladi. Kuzatishdan ma`lum bo`lishicha bolaga ota-onalarnig yoki oilaning katta a`zolarini hadeb nasihat qilaverishi ham ma`qul emas ekan. Buning o`rniga u bilan hamfikir, do`st kabi munosabatda bo`lish yaxshi samara berar ekan. Ba`zan ota-ona va bola o`rtasida voqealar bo`lib o`tadi. Shunday paytlarda ilgari bo`lib o`tgan ko`ngilsizlikni gapirib ko`ngilni g`ash qilmaslik lozim. O`zbek milliy urf-odatiga ko`ra ko`pincha bolalarning tabiatiga baho berilganda uning ota-onasidagi mavjud hislatlariga nisbat berib baholanadi.

Qadimdan shunday gap qolgan “Qush uyasida ko`rganini qiladi” ya`ni, ha ota-onasiga tortibdi, deyishadi. Yaxshi xulq ham yomon xulq ham bolalarga avvalo ota-onalardan o`tadi.

Demak, har bir ota-ona o`z farzandiga yaxshi hislatlarni bolaligidan singdirgani ma`quldir. Shunda u ulg`aygan sari oriyatli, nomusli, burchni his qiladigan hushmomala, odobli, bemorlarga hamdard bo`ladi. “Hadisi sharifda” “Sabr va bardosh tangridan, shoshqoloqlik esa shaytondandir” degan ulug` so`zlarni eslab o`tish joizdir. Shunday ekan oilaning katta yoshdagi a`zolarining bolaga qo`yadigan talablarni hamda ularga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishlarda so`z bilan ishning bir bo`lishi muhim ro`l o`ynaydi. Oilada bunday birlikni bo`lmasligi bola hulq-atvoriga salbiy ta`sir ko`rsatishi muhim. Bola tarbiyasi maktab, oila jamoatchilik va mehnat jamoalarning hamkorligida olib borilsa, tarbiyada ko`zlangan maqsadga erishish mumkin. Shu bois keyingi paytlarda mahalla-kuylarda, turar joylarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ko`lami ancha kengaydi. Ota-ona farzandiga qancha qilsa ham oz, lekin farzand ham ota-onani hurmat qilishi lozim. Bu haqda qadimgi hikoytlarda quyidagicha yoziladi: ”Ey farzand! Aql yuzasidan bilginki ota-onaning izzat va hurmatini bo`yinga olish lozimdir. Chunki farzandning asli ota-onadir. Nima uchun ota-onani hurmat qilaman deb ko`ngilga keltirma. Bilginkim ular sening uchun o`limga ham tayyordirlar. Agar har farzand aqlli va dono bo`lsa ota-onaning mehru-muhabbatini ado etishdan bosh tortmaydi. Ota-onaning ishi seni parvarish qilish va senga yaxshilik o`rgatishdir. Ey farzand! Ota-onaning ko`nglini sira ham ranjitma.

Ularning qalbini azoblama. Sen ota-onaning haqiga din nuqtai nazaridan rioya qilmasang, ham aql va muruvvat nuqtai nazardan rioya qil, ko`rgil ota-ona seni jonu-dili bilan parvarish qilishar. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech qachon yaxshilikka sazovar emassan, chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini bilmasa birovning yaxshiligiga baho berolmaydi. Farzanding seni hurmat qilishini istasang sen ham onangni hurmat qil, chunki sen ota-onangga nima ish qilsang farzanding ham senga shunday ish qiladi.

Bola mevaga ota-ona esa daraxtga o`xshaydi, daraxtni yaxshi tarbiya qilsang mevasi yaxshi va shirin bo`ladi. Shuningdek ota onaga izzat va hurmatni ko`proq qilsang ularning sen haqingdagi duosi tezroq mustajob bo`ladi. Meros olish xirsi bilan ota-onaning o`limini also istamagil. Ularning rizqi orqali rizqqa ega bo`lasan, rizq taqsimlash kundagi tiriklik deb o`zingni azobga qo`ymagil. Sendan ham yaxshiroq bo`lgan kishiga xasad so`zi bilan qaramagil. Molsizlikdan qashshoq bo`lsang ham aqldan boy bo`lishga harakat qil chunki mol bilan boy bo`lgandan aqliy tomondan boy bo`lgan yaxshiroqdir. Aql bilan mol to`plasa bo`ladi. Lekin mol bilan aql to`plab bo`lmaydi. Johil tezda kambag`allashadi. Ammo bilgilki aql bir qimmatbaho narsaki uni o`g`ri olib ketolmas o`tda yonmas suvda cho`kmas. Agar aqling bo`lsa hunar o`rgan chunki hunarsiz aql, libossiz to`n yoki afti yo`q odamdir, derdurlarki bilim aql siymosi.

Ilm o`qib o`ssang izzat ko`rasan

Haqiqatning izin yaxshi bilasan.

Bosh tortib o`qishdan qilsang yalqovlik

So`ngra bolam ko`p pushaymon qilasan.

Aql raso bolalarim biladi.

O`qimagan nori-keyin qoladi.

Ilm bilgan kishi bilsang donodir!

Harna bir maqsadga ega bo`ladi.

Bu quyilgan yo`llar ko`p ulug` yo`ldir.

Aqlli kishilar bu yo`lni biladi.

Odobli o`qingiz o`g`il qizlarim.

Fozil otang nasihati bil shuldir [32; 45].

Bolaning ota –onaga peshvoz chiqishi yukini, kiyimini qo`lidan olishi ham o`zbeklarning qadimiy odati. Masalan ota ishdan kelganda uning jajjigina o`g`ilchasi yoki qizalog`i yugurib borib kiyim boshini yechishga yordamlashadi. Oilaviy munosabatlar bolalarda yaxshi xislatlarni shakllantiradi. Bir necha lavxa keltiramiz.

Oilada o`rtancha qiz Farida tarbiyasida qiyinchiliklar ko`proq bo`ladi. U ikki o`g`ildan keyingi birinchi qiz edi. Akalari uni birmuncha taltaytirib qo`ydi. Uni juda ardoqlashar uning har qanday hohishini bajarishar edi. Bu unda xudbinlik alomatlarini keltirib chiqardi. Farida a`lo baholar bilan o`qiydi. Lekin onasi betob bo`lib qolganda ro`zg`or ishlari bilan bo`lib darsni tayyorlay olmay qoladi va uch baho oldi. Bir necha kundan keyin xasta onasi unga ovqat qil deganda Farida shu ovqat tufayli uch oldim deydi-da ovqat qilmaydi. Onasi indamay, bukchayganicha hammaga ovqat pishirib qo`ydi-da o`zi totib ham ko`rolmadi. Darmoni qurib yana yotib oldi. Shuxrat maktabdan kelib ko`rdiki onasining ahvoli yaxshi emas. Sababini surishtirganda onasi hamma gapni aytdi. Farida izza bo`ldi, biroq yana g`alati voqea bo`ldi. Bir kuni onasi undan qo`shniga dori berib kelishini iltimos qildi. Lekin u dars tayyorlayotgani uchun bormadi. Shavkat qilib turgan ishini tashlab dorini qo`shniga elitib berdi. Dam olish kuni bo`lgai uchun hamma uyda edi. Lekin hech kim Faridaga indamadi. Ehtimol shunday qilgani to`g`ri bo`lgandir. Chunki yaqin kishilari indamay qaragani har qanday so`zdan ko`ra kuchliroq ta`sir etadi. Shundan keyin Faridada qandaydir o`zgarish yuz berdi. U onasi etgandagina emas, balki o`zi bilib onasiga yordam beradigan bo`ldi. U sigir sog`ishni o`rgandi. Dam olish kunlari va kechqurunlari mo`tabar so`zlarni eslatib, ularni ma`nosini uqtirib borish kerak.

Bola tarbiyasi qonuniyatlarini bilmagan vaqtda bola tarbiyasiga e`tibor bermagan ota-onalar bir kuni pand yeydilar. Shunday hollar yuz bermasligi uchun bolaning dunyoga kelishi bilanoq uni to`g`ri tarbiyalash pedagogika fanining shu sohadagi tavsiyalariga e`tibor berish zarur.

Xalqimizda “Har kim ekanini o`radi, bug`doy ekkan bug`doy, arpa ekkan arpa o`radi” degan maqol bor. Demak, bola ham ota-onasidan olgan tarbiyasiga qarab o`sadi. Bolaning hayot yo`li boshlanadigan boshlang`ich qadam jamiyat bo`lib, bola dastavval shu yerda insonni ko`radi. U haqida tushunchaga ega bo`ladi. Oilada uning hulqi, ko`nikmalari odatlari shakllanadi. Oila unga uzluksiz ta`sir ko`rsatib uning faolyatini nazorat qilib boradi. Buning sababi faqat bolaning ko`p vaqti oilada o`tishdagina deb ko`rsatish uncha to`g`ri emas. Oila balaning yuragiga yaqin tarbiyachidir. Bola ota-onasiga ishonadi. Shuning uchun ham ma`lum davr mobaynida ota-ona bola uchun turmush haqida fikr yurituvchi kishilarga axloqiy baho beruvchi yo`lboshchi bo`lib hizmat qiladi.

Konstitutsiyaning XIV bobida ham “Oila” bobi alohida ajratib yozilgan. Oila inson uchun muqaddas va ulug` dargohdir. Inson ana shu dargohda o`sadi, unadi va voyaga yetadi. Oilani mamlakatning kichik bir tarmog`i deb qarash kerak. Butun bir mamlakatni o`ziga hos ishlab chiqarish xo`jaligi iqtisodiy hayoti bo`lganidek, oilada ham ana shular mavjud. Oilada bu hayotni to`g`ri tashkil qilish oila boshlig`i rahbarligida olib boriladi. Bola 2-3 yoshdayoq idrok eta boshlaydi. “sut bilan kirgan” tarbiya shubhasiz puxta va unutilmas bo`ladi.

Inson bolaligidan voyaga yetganga qadar ota-ona yoki uning o`rnini bosuvchi shaxs tarbiyasida bo`ladi. Bola voyaga yetgach o`zi mustaqil oila quradi.

Oilada inson kamol topadi. Jamiyatning bo`lg`usi mehnatkash fuqarosi voyaga yetadi. Insonning qanday kishi bo`lib yetishishi ko`p jihatdan oila tarbiyasiga, ota-ona mas`uliyatiga, vijdoniga, shuningdek ota-onaning bola tarbiyasini umumiy qonunyatlarini yaxshi bilishiga va hayotda ularga qanchalik amal qilayotganiga bog`liqdir. Ota-onalar bolalarning bugungi kundagi intilishlarini ommaviy manfaatlar bilangina cheklab qo`ymasliklari kerak. Bolaning qiziqishini umid va orzulariga sezgirlik bilan quloq solish eng yaxshi tilaklarining qanoat yoshiga imkoniyat yaratilishi kerak.

Oila tarbiyasidagi asosiy talablardan biri shuki oiladagi katta yoshli hamma kishilar bolaga qo`yiladigan tarbiyaviy talablarda bir yoqadan bosh chiqarib ish ko`rishlari kerak. Ba`zan bolaning onasi yoki buvisi ruxsat bergan narsani otasi

taqiqlab qo`yadi, otasi bergan jazoni onasi bekor qiladi. Bolaning bir qilg`ini buvisi maqtasa shu qilig`i uchun ota uni koyiydi va hokozi. Bunday munosabat tarbiyada hatoliklarni kelib chiqishiga sabab bo`lishi mumkin. Bolalar kattalarni harakatlaridagi kelishmovchilikni ko`rib mug`ombirlik, aldamchilik, hushomadlik qilishga odatlanadilar. Bolaga nisbatan o`zaro kelishmagan talablar qo`yilganda u o`zini butunlay yoqotib qo`yadi va nima qilishni bilmay qoladi. Kattalar o`rtasidagi janjal va mashmashani bola ko`rib turishiga aslo yo`l qo`yib bo`lmaydi. Oilada bolaning to`g`ri tarbiyalamoq uchun er bilan xotinni oiladagi katta yoshdagi kishilarni o`zaro maslahatlashib bola tarbiyasida bir xil yo`l tutishlari g`oyat muhimdir.

Bunday munosabat keyinchalik katta-katta xatolarga olib kelishi mumkin. Tarbiyada hamma narsa muhim deb qilinishi lozim. Bolalarga qo`yiladigan talablar asta-sekin izchillik bilan murakablashtirib boriladi. Shuni alohida uqtirish zarurki, ota bilan ona o`z farzandida qanday axloqiy sifatni tarbiyalanishi mumkun bo`lgan sharoitga solmog`i lozim, zotan bir dasturxon ustida bolani ozoda ovqatlanishga o`rgatib bo`lmaganidek, bolaga qo`yilgan tarbiyaviy talablarni bajarilishini va qay tarzda bajarilayotganini sinchkovlik bilan kuzatib turib ma`lum axloqiy sifatlar tarbiyalanishi mumkin. Sharoitni yoritmay turib bu qo`yilgan natijalarga erishib bo`lmaydi.

Tarbiya ishi avvalo oilada, maktab va tarbiya muassasalarida, jamoatchilik tomonidan muntazam, maqsadga muvofiq olib boriladi. Demak tarbiyaning muhim hususyatlaridan biri uning sistemali olib borilishi hamda muayyan maqsadga qaratilganligidir. Bola tarbiyasida bu prinsipning buzilishi bolaning hulq-atvoriga o`z ta`sirini ko`satmay qolmaydi. Bola tarbiyasida ota-onani obro`sini hal qiluvchi omillardan biridir.

O`qituvchi, sinf rahbari o`quvchilarning oilada tarbiyalashda doimiy yordam berishga da`vat etilgandir. Maktabning ota-onalari bilan birgalikda olib boradigan faoliyatida ota-onalar majlislari, jamoa, yakka tartibda suhbatlar, ota-onalar konferensiyalari, ota-onalar uchun ularning bolalar bilan olib boriladigan to`garak va sinfdan tashqari ishlarga jalb qilish kabi ishning jamoa va alohida



shakllari tarkib topgan. O`qituvchi- sinf rahbari oila bilan oila boriladigan ishni mazmuni shakl va metodlarini to`g`ri tanlashi uchun o`z tarbiyalanuvchilarining oilasini juda yaxshi bilishi kerak. Oilani va oilada o`quvchilarni o`rganish metodlari hilma-xildir. Kuzatish suhbat, anketa olish, o`quvchilarning ijodiy ishlarini o`rganish, ota-onalar qiziqishlarini aniqlash, oila a`zolarini mehnat faoliyati bilan tanishish. O`qituvchilik faoliyatini endigina boshlagan sinf rahbari uchun oilaga borish anchagina qiyin kechadi, gohi-gohida esa shubhalanish ham mumkin. O`quvchilarning oilasiga borish kerakmi?

Bu savolga faqat bir hil javob berish mumkin. Ha borish kerak. Shuningdek, o`qituvchi yoki sinf rahbarining ayrim masalani aniqlashi uchun ham borishi mumkin.

O`qituvchilarning o`z o`quvchilari oilalariga borishi, ular birinchi sinfga qabul qilingandan boshlanishi va maktabdagi barcha ta`lim jarayoni mobaynida davom etishi mumkin.

### **Oila tarbiyasi sharoitlarini o`rganishning tahminiy rejasini.**

1. Oila tarbiyasining sharoitlari (moddiy va sanitarik gigiyenasi sharoitlari, kun tartibiga rioya qilishlari, bola sog`lig`ini, ahvoli, oilaning axloqiy muhiti, ota-onalarning qiziqishlari, uy vazifalarining bajarilishi ustidan nazorat)

2. Oiladagi munosabatlarning harakteri, ota-onalar obro`yi.

3. Bolaning oiladagi hulqi, o`z mehnatida ishtirok etishi, mehnat va dam olish tartibining bajarilishi, bolaning o`rtoqlari bevosita o`quvchining mavqeyi.

4. Oila tarbiyasining harakteri rag`batlantirish va jamlash sistemasi, to`g`ri axloq odatlarini shakllantirilgani, ota-onalari, akalari va opalarining namuna bo`lishi.

Oilaga dastlabki borishida o`qituvchi diqqatini oila tarbiyasining umumiy sharoitiga qaratadi. Keyinchalik o`qituvchi bolaning oila sharoitini chuqurroq o`rganishi mumkin. O`qituvchi oilaga borish rejasini ilgariroq o`ylab ko`radi. Oilaga borish maqsadiga qarab ota-onalar bilan ishlashning tegishli dasturini belgilaydi. O`qituvchi bolaning ota-onalariga u haqida qanday ahborotlarni

yetakzish mumkinligini belgilab oladi. Avvalo ota-onalarga bolaning ijobiy tomonlarini, yaxshi sifatlarini to`g`ri, batafsil gapirib berishi lozim.

O`quvchini oila a`zolariga hushmuomalalik munosabati ota-onaning unga ihlos qo`yishga ularning ishonchini qozonishga, samimiy bo`lishga yordam beradi.

O`qituvchi ota-onalar bilan birga bo`lgan suhbatda bolaning kamchiliklarini birgalikda yo`qotish yo`llarini belgilaydi. Ota-onalarga pedagogik adabiyotlarni tavsiya etadi. O`z o`quvchilarining oilalarida bo`lib, ota-onalari bilan suhbatlashib, kuzatishlari orqali o`qituvchi ota-onalar bilan yanada muatahkamroq aloqa o`rnatishga, ularning sinf o`qituvchilari bilan olib boriladigan ishlarga jalb qilishga yordam beradi.

Sinf rahbarida ko`pincha ota-onalar bilan uchrashish, ular bilan o`quvchi tarbiyasi haqida maslahatlashish ishtiyoqi tug`iladi. O`quvchilarning uylariga borishga esa hamma vaqt imkon topavermaydi. Ana shunda ota-onalar o`z bolalarini tarbiyasi to`g`risida suhbat uchun maktabga ta`lim va tarbiyaga doir masalalarni birgalikda hal etish imkoniyatini beradi. Ota-onalar bilan yakka tartibda suhbat o`tkazganda o`quvchilarning turmush va sharoitlarinigina aniqlab qolmasdan, balki shu bilan birga ular hatti-harakatidagi aniq voqea hodisalar ularning o`quv mehnat faoliyatidagi kundalik hulq-atvoridagi kamchiliklarga barham berishlari, bo`sh vaqtlarini qanday o`tkazishlarini aniqlab oilsh mumkin. Ota-onalar o`quvchilarning uyda bajaradigan o`quv mashg`ulotlarini yanada ratsional tarzda tashkil etish to`g`risida, ularni mehnatga o`rgatish va shu kabilar to`g`risida maslahatlar olishlari mumkin.

Ota-onalarni o`quvchi tartib-intizomni buzgan, yoki yomon o`qiy boshlagan vaqtidagina chiqarib qolmaslik kerak. Sinf rahbari o`quvchining sinfdan tashqari o`qishlarini tashkil etish haqida uni qandaydir ijtimoiy foydali ishga jalb etish haqida bolaning biron bir sohadagi qobilyatini taraqqiy ettirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish haqida uning ota-onasi bilan kelishib olishi lozim bo`lib qoladi.

Agar maktabga intizomsiz bolalarning ota-onalari chaqirilgan bo`lsa, ular bilan o`quvchiga qo`yiladigan yagona talablar hamda unga ta`sir etishning pedagogik jihatdan o`zini oqlagan chora tadbirlar haqida kelishib olmoq darkor.

Bunda hamisha shu narsani esda tutmoq kerakki ota-onalar pand-nasihat va jerkib urishishga emas, balki pedagogik maslahat, o`rtoqlarcha yordamga muhtoj bo`ladilar. O`quvchilar to`g`risida qilinadigan do`q-po`pisa va o`quvchi ustidan dod qilishdan ko`ra o`quvchiga ta`sir etishning oqilona choralari to`g`risida og`ir vazminlik bilan ishchanlik vaziyatidagi suhbat katta foyda beradi.

## **1.2. Shaxs hamda hamkorlik tushunchasining mazmuni va mohiyati**

Barkamol avlodni tarbiyalash uchun avvalo insonning o`sib, rivojlanib borishi, shaxs bo`lib shakllanishi bilan bog`lik bo`lgan ma`lumotlar haqida fikr yuritish lozim. Shuni e`tirof etish lozimki, shaxsni shakllantirish, rivojlantirish va tarbiyalash har bir ijtimoiy - iqtisodiy jarayonning obyektiv va subyektiv qonunlari bilan bog`lik. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon hisoblanib, u ko`plab ichki va tashqi ta`sirlar omillar orkali ro`yobga chiqadi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishi, rivojlanishini aniqlashdan avval “odam”, “inson”, “shaxs” tushunchalarini ko`rib chikaylik.

“Odam” - hayvonot olamining oliy mahsuli. Oliy mahsul ekanligining sababi, u fikrlashi, so`zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega. Mabodo shu xislatlar “odam”da bo`lmasa, u individligicha qoladi. Shuning uchun xazrat Alisher Navoiy yozishlaricha:

Kim kuchuk birlan xo`tikka qancha qilsa tarbiyat,

It bo`lur, eshak bo`lur bo`lmas aslo odami [24; 115].

Ilmiy pedagogik - psixologik nazariyachilarning ta`limotiga ko`ra “odam” individ shaklida dunyoga keladi, individual hayoti davomida anatomik -fiziologik xususiyatlarni ajratish, ko`payishi, kattalashuvi natijasida inson bo`lib voyaga yetadi. Diniy aqidalarda naql qilinishicha, “odam”ni Olloh taolo tuprokdan shunday mukammal va go`zal kilib yaratib qo`ydiki, odamga o`zi ham maftun bo`lib qolib, farishta Azozilga. Odam alayhissalomga ta`zim filishini buyurdi. Azozil esa: “Men nurdan yaralgan bo`lsam, bu esa tuprokdan yaratilgan bo`lsa-yu, nega men unga ta`zim qilar ekanman” deb takabburlikka berilib, Ollohning amrini bajarishdan bo`yin tovlabdi. Shunda Olloh takabburligi uchun Alshilni “shaytoni la`in” deb la`natlab, uni jannatdan quvib yuborishga amr etibdi. Lekin shaytoni la`in shaytonlik qilib, Ollohga

yolvorib so‘rabdi: “Mening maskani - makonim odamning qon tomirida bo‘lsa...” Olohning dargoxi keng emasmi, shaytonning bu iltimosini kabul kilibdi. Odamzotning ba‘zan shayton vasvasalariga berilib qolishi mana shundandir [29; 145].

Bu bir diniy - aqida, lekin haqiqatdan uncha uzoq emas. Odam - ijtimoiy jonzot (maxluk) bo‘lib, mehnat qurollarini ishlab chiqadigan, ularni o‘zining yashashi uchun va tashqi muhitga ta’sir ko‘rsatishi uchun ishlata oladigan yerdagi jonzotlarning eng oliy ongli organizmlaridan biridir. Odam to‘grisida turli xil ta’limot bor. Aristotel uni ijtimoiy, sotsial maxluk (jonzot) desa. Telvensiy tashqi organizmlari, ko‘l, oyoqqa ega bo‘lgan qurol va mehnat anjomlarini ishlata oladigan jonzot deb ta’riflaydi.

Odam individual hayoti davomida xotira, sezgi, farosat, tasavvur, iroda, xayol, idrok kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi, yaxshini yomondan, halolni xaromdan farq qiladi, iffatni, xayoni qadrlaydi. Bu odamning insoniy fazilatlaridir.

Demak, odamning rivojlanishi bu yuqorida ta’kidlaganimizdek, organizmning anatomik tuzilishi, fiziologik, psixologik funksiyalar, faoliyat va harakatning miqdor va sifat jihatidan o‘sganligi, rivojlanganligidir. Xo‘sh rivojlanish nima?

Rivojlanish - ya’ni o‘sish jismoniy jihatdan bo‘y - gavda og‘irligi, qon bosimi, o‘pka, qo‘l - oyoq, muskullarning, psixik jarayonlar diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur, iroda xususiyatlari, faoliyat turlari - o‘yin, o‘kish, mehnat, sport va hokazoning o‘shidir.

**RIVOJLANISH** - shaxsiy, irsiy, biologik, ijtimoiy — iqtisodiy bilimlarning yo‘nalishini kengayishidir. Inson tirik organizm sifatida ma’lum maqsad asosida faoliyat ko‘rsatadi va shu faoliyati davomida o‘shib, rivojlanib boradi. Rivojlanish bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tana, gavda a‘zolarining, nerv funksional faoliyatining kamol topishi aql - zakovatining o‘shib borishidir. Shunday kilib, inson o‘shib, rivojlanib shaxs sifatida shakllana boradi. Xo‘sh shakllanish nima?

**SHAKLLANISH** - biron bir narsaning bir joyga to‘planishi, yig‘ilishi demakdir. Shaxsning shakllanishi deganda, uning xulq - atvorida, ijtimoiy va

biologik omillarning ta'sirida tajribalar, munosabatlar, axloqly sifatlarning to'planishi tushuniladi.

Masalan, armiya bo'limlarining bir joyga to'planishini, yig'ilishini armiyaning shakllanishi deb aytishimiz mumkin. Bunga "shaxs" shakllanishi tushunchasi misolida izohlaydigan bo'lsak - inson shaxsidagi, jismoniy, axloqiy, psixologik, xususiyatlarning ko'payib, to'planib, mustahkamlanib borishi tushuniladi.

"Tarbiya" kishining kamol topishida rivojlanishga doir bo'lgan xususiyatlarning maqsadli reja asosida ta'sir etishini tashkil etadi.

Ayni paytda tarbiyaning vazifasi, mazmuni, metodlari doimo tarbiyalanuvchilarning rivojlanganish darajasiga bog'lik bo'ladi va pedagogikaning biror maqsadga qaratilgan ishlari ta'sirida o'zgaradi.

**TARBIYALASH** - o'sib borayotgan yosh avlodni davr va ijtimoiy - iqtisodiy talab hamda ehtiyojlar asosida kattalar tajribasini egallashga, undagi ijtimoiy hayotga qo'shilishi uchun amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyat.

**HAMKORLIK** – bu bola tarbiyasida ota-ona va maktab o'rtasida yagona hamda mutlaq to'g'ri pedagogik ta'sir yo'lini ishlab chiqish demakdir

**SH A X S** - odamning jamiyat a'zosi sifatida o'z - o'zini anglashi, tafakkurini, faoliyatning obyektivligini, muloqot hamda biluvchanlikni tashuvchanligidir.

1) keng ma'noda inson - kishi individi»

2) tor ma'noda - muayyan jamiyat a'zosi bo'lgan individning ijtimoiy jihatdan ahamiyatli, barqaror hislatlar majmui. "Shaxs" tushunchasini "indiv", - "individual", (biologik zot, har bir kishi) va "Individuallik" (insonning takrorlanmas o'ziga xos xususiyatlari) tushunchalaridan farq qilishi kerak. Individual muayyan ijtimoiy munosabatlarning hosili bo'lgan taqdiridagina shaxsga aylanadi [21; 68].

Shaxs ong va o'z - o'zini anglash paydo bo'lganidan so'ng vujudga keladi. U falsofiya, psixologiya, sotsiologiya va pedagogikaning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Demak, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki uning individual insonga, soʻngra shaxsga aylanishida hayotning obyektiv va subyektiv omillari taʼsir koʻrsatadi. Shaxs ijtimoiy hayot davomida rivojlanishi jarayoni sababli murakkab taraqqiyotni boshidan kechiradi va shaxs boʻlib shakllanadi. Shu tufayli shaxs ijtimoiy hodisa yohud sotsial tuzumning mahsulidir.

Nainki shaxs ijtimoiy tuzumning mahsuli ekan, Prezidentimiz I. Karimov taʼkidlaganlaridek “Yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qatʼiy nazar, munosib hayot sharoitini yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kafolatlanadigan turmush darajasi va erkinliklarini taminlash va shular asosida Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatida munosib oʻrin egallashiga erishishi” respublikamiz yoshlarini shaxs boʻlib shakllanishi uchun imkon yaratadi [4; 94].

Shunday kilib shaxsning shakllanishi har bir taraqqiyot davri uchun muhim masalalaridan biri boʻlib hisoblanadi. Shaxsning shakllanishini toʻgʻri talqin qilish, uning shakllanish sabablari, taʼsir koʻrsatuvchi omillarni aniqlash zarur.

Yukorida koʻrib oʻtganimizdek, shaxsning shakllanishi, rivojlanib kamol topishi murakkab jarayon boʻlib, u ichki va tashqi omillar taʼsirida shakllanadi. Bu irsiyat, ijtimoiy muhit, taʼlim - tarbiya va nihoyat shaxsning mustaqil hamda aktiv faoliyatidir. Buni biz kuyidagi jadvalda koʻrishimiz mumkin

**Irsiyat** - bolaga ota - onadan, avlod - ajdodlaridan tugʻma hislatlar, yaʼni nasldan - naslga oʻtadigan irsiy (biologik) xususiyat, oʻxshashliklar majmuidir. Tugʻma hislatlar - bu inson organizmi, anatomo-fiziologik tuzilmasining tarkibiy qismidir. Bundan tashkari, inson organizmining oʻziga xos xususiyatlari koʻzining, sochining rangi, qaddi- qomati, soʻzlash, tik holatda yurish, fikrlash va mehnat qilish qobiliyati kabi bir qator xususiyatlar ham tugʻma hislatlarga kiradi. Shaxsning shakllanishida irsiy belgilarning yetakchi roli haqidagi XVI asr falsafasidagi preforizm oqimi dastlabki fikrlarni bayon qildi. Mazkur oqimning taʼlimotiga koʻra, odam bolasi ona qornida boʻlgan vaqtidayok boʻlajak shaxsga boʻlgan barcha xususiyatlarga ega boʻladi, rivojlanish esa bu mavjud xususiyatlarni koʻpayib borishini taʼminlaydi.

Inson shaxsining, xulq-atvorining, odob-axloqining rivojlanishida biologik omillarning yetakchi roli mavjud deb talqin qilgan oqimlarning yana biri XX asr boshlarida paydo bo'lgan bixeviorizm ta'limotidir. Bu ta'limotning namoyondalaridan biri amerikalik psixolog va pedagog E Tordaykning fikricha, shaxsda bo'lishi lozim bo'lgan barcha xususiyatlar, shu jumladan, ong va aqliy qobiliyatlar nasldan - naslga o'tadi. Go'ye insonning aqliy qobiliyati, shaxsiy sifatlari, uning ko'zi, sochinig rangi, barmoqlari, tishlari tabiat tomonidan qondosh in'om etilgan bo'lsa, ular ham shunday tabiatdandir.

Bu fikrlar Amerika pragmatik (prama foyda) pedagogikasining otasi Djon Dyui ham shaxsning rivojlanishini biologik nuqtai nazaridan baholab, "Shaxsda mavjud bo'lgan aqliy qobiliyatlar - bu tug'madir, hakikiy tarbiya tashqaridan kiritilgan narsa emas, u tug'ma xususiyat va qobiliyatlarni o'stiradi", - deb yezadi.

XX asrning boshlarida bolaning ruhiy jihatdan o'sishini, nemis zoologlari F Myuller, E Gekkeller, biogenetiklar Bolduin, Chemberlin, Steli Xoyal biogenetik qonun alohida rivojlanadi, deb ta'riflaydilar. Ma'lumki, biogenetik qonunga ko'ra, "Ontogenez filogenezni takrorlaydi", ya'ni har bir organizm o'zining embrional taraqqiyotida o'zidan avvalgi barcha bosqichlarni takrorlaydi. Bu degani, individual organizm o'zining tuxum hujayra holatidan mukammal holatga yetguncha boshidan kechirgan qator shakllarni shu organizmning ajdodlari bosib o'tgan juda ko'p shakllarning qisqa, ixcham takrorlanishi demakdir.

Nazarimizda bolaning rivojlanishi, kamol topishida qayd eshilgan jarayon o'rtasida o'xshashliklar bo'lishi mumkin. Ammo boladagi aqliy qobiliyat, shaxsiy xususiyat tabiiy ta'sirda qo'yilsa, boshqarilmaga, yo'naltirilmasa u dastlabki vaktida qanday bo'lsa, shunday qolishi mumkin. Ruhiy taraqqiyot maqsadli yo'naltirilgan holda rivojlanishi mumkinligi fanga isbotlangan. Bu tashqi muhitga va ta'lim - tarbiyaga ham.

Shaxsning rivojlanishi va taraqqiy etishi murakkab jarayondir. Shaxsning ruhiy holatlari, aqliy qobiliyatlari, insoniy fazilatlari uning

atrof-muhit bilan muloqoti natijasida, mehnat qilish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ilk bolalik chog'ida hayvonlar olib ketgan va ular orasida o'sganlarning tik turishi, so'zlashish, fikrlash qobiliyati va boshqa insoniy xususiyatlarni yo'qotganligini dalolat beruvchi dalillar orasida isbotlangan.

Bu faktlar kishining rivojlanishida muhit avvalo ijtimoiy muhitning ahamiyatini tasdiqlaydi. Tabiiy iste'dod nishonalarining rivojlanishi uchun tegishli sharoit (ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va hokazo) va muayyan tarbiya zarur. Shaxsning shakllanishida geografik muhit, ya'ni makromuhit va mikromuhit katta rol o'ynaydi.

Ijtimoiy muhit kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisidir Ijtimoiy muhit ko'p jihatdan sotsial shart - sharoitlariga bevosita bog'lik. Bola tug'ilishi bilan ijtimoiy hayot sharoitlari, tayyer ijtimoiy ong shakllariga duch keladi U mehnat sharoitning ta'sirida o'sadi, ulgayadi.. Kishilarning o'zaro muloqotlari natijasida nutq shakllanadi, o'sadi, layoqat rivojlana boradi Boladagi irsiy belgilarning o'sishi, kamol topishi, insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyasiga bog'lik desak xato bo'lmaydi. Zero, Alisher Navoiy - shoir, Enshteyn - fizik, Ulug'bek - astronom, Ibn Sino - tabib bo'lib tug'ilmagan. Ulardagi layoqat kurtaklarining rivojlanishi, iste'dodiga aylanishida ijtimoiy mug'it, ta'lim-tarbiya muhim rol o'ynagan.

Shuni alohida e'tirof etish joizki, shaxsning barcha ruhiy sifatleri -odob axloqi, xulqiy fazilatleri, aqliy salohiyati muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyat rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi, ammo hal qiluvchi omil bo'la olmaydi.

Qayd qilib o'tganimizdek, shaxs sifatlarining rivojlanishida tashqi atrof, ijtimoiy muhit bilan birga shaxsni maqsadli shakllanishiga yo'naltirilgan ta'lim - tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bolani o'rab turgan muhit, odamlar, mehnat va til oqibat natijada tarbiya vositasiga aylanadi.

Ta'lim tarbiya jarayonida irsiyat va muhit bera olmagan narsalar, hodisalar o'zlashtiriladi. Tug'ma qobiliyatlar rivojlanadi, kerakli tomonga o'zgartiriladi, muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan nukson kamchiliklar, ham tugatilishi mumkin. Ta'lim jarayonida bilimlar, ko'nikma va



malakalar hosil bo'libgina qolmay, ilmiy dunyokarash shakllanib, kamolotga erishish ruyobga keladi. Bilimlarni egallanishi bolani ham jismoniy, ham ma'naviy yetuklikka erishishi uchun imkon tug'iladi. Ma'lumki, rivojlanishda mustaqillik va faollik ham mavjud. Insoning kamol topish jarayonida faqat irsiyat, ijtimoiy muhit va ta'lim - tarbiya muhim ahamiyat kashf etmay, shaxs faolligi, mustaqilligi ham katta rol o'ynaydi. Zero, shaxsning o'zi ta'lim-tarbiya jarayoniga faol ishtirok etsagina tug'ma layoqatni uyg'otadi. Iste'dod, qobiliyatlarni o'stira oladi; qobiliyat, iste'dodning ro'yobga chiqishga insonning mustaqil fikrlashi, bilim olishi, ta'lim- tarbiyada faol ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs rivojlanishida bolalarning yosh davrlarini hisobga olish, samarali o'qitish va tarbiyalashning omillaridan biridir.

Shunday qilib, o'qituvchi-tarbiyachilar o'quvchilarning yuqorida qayd qilib o'tilgan yosh davrlarini, bu davrlarda sodir bo'ladigan ruhiy - ma'naviy o'zgarish va xususiyatlarni (bu to'g'rida yoshlar psixologiyasi ma'lumot beradi), jismoniy rivojlanishni yetarli darajada bilsalar va ma'lumotga ega bo'lsalar, nafakat ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilashga, balki yoshlarning rivojlanib, kamol topishlarini to'g'ri tashkil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ma'lumotlar o'qituvchi-tarbiyachiga o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirishga ko'maklashibgina qolmay, balki o'quvchi o'quvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatish imkonini ham beradi. Zero, bizning maqsadimiz yosh qalblarga insoniylik urug'larini sepib, ularni barkamol avlod qilib tarbiyalashdan iborat. Buni shunday rejalashtirish va tashkil qilish kerakki, toki kelajak avlod o'zini mamlakatning, xalqning tayanchi, ishonchli himoyachisi deb his qilsin.

### **1.3. O'quvchi shaxsini shakllantirishda sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari mazmuni**

Bizga ma'lumki, yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishida pedagogik jarayonning o'ziga xos o'rni va ahamiyati mavjuddir. Pedagogik jarayon deganda bu shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi maktab, oila va boshqa tarbiya obyektlarining o'zaro aloqasini nazarda tutamiz. O'z navbatida bu shaxslar aro o'zaro hamkorlik, birgalikdagi harakat, bir-biriga ta'sir etish asosiga quriladi. Shunday qilib,

shaxsning shakllanishi borliq, olam, insonlar, o'zaro munosabatlar tizimi orqali ifodalanadi.

Maktabda sinfn ing ijtimoiy-psixologik holatini va alohida o'quvchilarning individual xususiyatlarini yaxshi bilgan o'qituvchi har bir o'quvchining o'qishi, boshqalar bilan munosabatlari va xulq-atvorini tushunishga, ularni o'z vaqtida tuzatishga, shuningdek o'quvchidagi yashirin imkoniyatlarni ilg'ashga va o'quvchi shaxsining butun borlig'icha rivojlanishiga ta'sir etishiga qodirdir.

Albatta bunday shaxs sinf rahbarlaridir. Sinf rahbarlari o'z faoliyatlari jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish borasida tinmay mehnat qilishlari va har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida ko'ra olishi darkor.

Sinf rahbari o'quv-tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisi pedagogik mahoratning yuksak namunalarini o'rnak qilib ko'rsatuvchi ustoz demakdir. Shunday ekan, sinf rahbarining muhim fazilatlaridan biri uning yaxshi o'qituvchi bo'lishidadir. O'z ishida asosiy narsani ko'ra bilishi mahorati har qanday rahbar uchun muhimdir. Biroq sinf rahbariga bunday qobiliyat va fazilat g'oyat yuksak darajada xos bo'lishi zarur. Chunki, uning mas'uliyatli lavozimi o'zida bir emas, balki ko'plab ixtisosni birlashtiradi. Sinf rahbari, dars olib borishi, o'quv-tarbiya va xo'jalik ishlarini yurituvchi, talabchan bo'lishi hamda o'quvchilarning dilkash murabbiysi bo'lishi kerak. Bunday ko'p qirrali fazilatni tarbiyalashga hech qanday oliy o'quv yurti qodir emas. Rahbarlik iste'dod va fazilati hayotning o'zida, maktabdagi ish amaliyotida shakllanib kishidan keng ko'lamdagi bilim va tajribani, muallimlikka xos fidokorlikni, tanlangan ishga cheksiz sodiqlikni talab qiladi. Hozirgi sharoitda o'quv yurtlari rahbarlarining roli yanada ortadi.

O'z-o'zidan shunday savol tug'iladi, hozirgi sharoitda sinf rahbarining fazilati qanday bo'lishi kerak?

Bizningcha, hozirgi sinf rahbari dadil, tashabbuskor, bilimdon, madaniyatli, halol va va'dasiga vafodor bo'lishi kerak. Bunday oqil rahbar har qanday vaziyat va sharoitga to'g'ri yondosha oladi, voqealarga va turmush hodisalariga dadil, odil baho beradi, haqiqiy talab va adolatli ish uslubini vijudga keltira oladi, mehribon inson sifatida katta mavqega ega bo'la bo'ladi.

Obro‘-e‘tibor xodim xarakterining ichki belgilariga bog‘liq bo‘ladi. Tashqi vaziyatlar uning rivojlanishiga ko‘maklashishi va uni rag‘batlantirishi mumkin. Agar rahbarning amaliy va siyosiy xususiyatlari o‘zi egallab turgan lavozimga mos kelmasa, u oqibat natijada o‘ziga tophirilgan ish sohasini uzoq vaqt, malakali va samarali idora qila olmaydi. Har bir kishi o‘z obro‘-e‘tiborini o‘z mehnati bilan yaratadi. Sinf rahbari esa o‘z obro‘-e‘tiborining birinchi va asosiy ijodkoridir. Sinf rahbari mavqeini uning egallab turgan lavozimi va boshliqlarning qo‘llab-quvvatlashi emas, balki uning o‘z ishiga munosabati, bo‘ysinuvchilar va mehnatkashlarning unga munosabati belgilaydi. Obro‘-e‘tiborli rahbar sinfning g‘oyat hurmatli rahbari, jon-tani va aql idroki, ustoz va murabbiysidir.

- Jamiyatdagi boshqaruv tizimni ma‘lum boshqarish vazifalari asosida tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra uni alohida ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- O‘quv jarayonini optimal tashkil qilish vazifasini bajaradi;
- Mustaqil davlatimizga munosib o‘quvchilar tayyorlashda asosiy javobgarlardan biri va undagi o‘z o‘rnini aniqlab olish;
- O‘z faoliyati rejalarini aniq, o‘z vaqtida va izchillik bilan bajarishga erishish;
- Vazifani o‘ta mas‘uliyatli bo‘lishini sezish bilan birga unga mos ilmi madaniyatli, oqil, adolatli, tadbirkor, tashabbuskor bo‘lishga doimo harakatda bo‘lish;
- O‘z ishini bilish, mas‘uliyatni va javobgarlikni his qilish lozim;
- Yoshlarni milliy-ma‘naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga muntazam ravishda e‘tibor berish;
- O‘zi ishlayotgan sinf va maktab nufuzini oshirishga doimo e‘tiborda bo‘lish;
- “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning ikkinchi bosqichini amalga oshirishda faol ishtirokchi bo‘lish;
- Sinf rahbari o‘quvchilar bilan ishlashda o‘ta sinchkov, uddaburon bo‘lmog‘i va tadbirkorlik bilan ish yuritmog‘i lozim va u har bir vazifani

bajarishda o'qituvchilar bilan muloqotda bo'lishi hamda ulardan kelib chiqadigan munosabat natijalarga farq bo'lmasligi kerak;

Sinf rahbari ota-onalar bilan muntazam ravishda aloqada bo'lib turishi lozim va bu orqali har bir o'quvchining hulq-atvorini o'rganish, uning uyidagi va maktabdagi faoliyatini bilishi, hamda o'quvchining o'qish va hulq-atvoridan ota-onani xabardor qilish, ya'ni ikki tomonlama tarbiyaning bir maqsadga-yetuk mutahassis va barkamol shaxs bo'lib yetishishga doimo e'tibor berish kerak va shu kabilar;

U o'z navbatida o'quv jarayoniga mas'ul hisoblanadi. Bunda u quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. O'quv jarayonining samarali bo'lishini o'z zimmasida ekanligini doimo his etish;

2. Jamiyat taraqqiyotiga mos mas'uliyat negizida javobgarlik doirasi kengayib borishini bilishi;

3. Sinf rahbari tashabbuskor bo'lishi va u ish yuritishda fidoiy bo'lmog'i lozim;

4. Ilmga intiluvchi yoshlarga rahbar va ularni mazkur yo'nalish bo'yicha yetaklovchi ekanligini doimo his qilishi;

5. Sinf rahbari o'quvchi: yosh yigit va qizni o'z farzandi, o'sib kelayotgan avlod, g'uborsiz, sofdil, yangilikka intiluvchan qalb egasi va nihoyat ota-ona, murabbiylar ko'rsatgan yo'lidan borishga astoydil bel bog'langan farzand ekanligini doimo esda tutish kerak;

6. O'quvchilarning o'z-o'zini boshg'arishga sharoit yaratish va bunda faol o'quvchilardan foydalanish;

7. O'quvchilarni kasbga tayyorlashda o'sha sohaning mashhur kishilari bilan uchrashuvlar o'tkazish hamda sinf rahbarining asosiy burchlaridan biriga kiradi.

Sinf rahbari o'quvchi shaxsini shakllantirishda turli tarbiya usullaridan, rag'batlantirish va jazolash usullaridan foydalanishlari mumkin. Bunda o'qituvchi bolalarni rag'batlantirish yoki jazolash borasida psixologik bilimlarga ega bo'lishi, kimni va qanday qilib rag'batlantirish yoki jazolashni maqbul yo'lini tanlay olishi

lozim. O'quvchi shaxsini shakllantirishning samarali usuli-bu rag'bat hisoblanadi. Rag'bat sifatida keng tarqalgan usul esa pedagogik talab hisoblanadi.

Pedagogik talab eng muhim usul bo'lib hisoblanadi. Talab bu tarbiyalanuvchining turli vazifalarni bajarish; ijtimoiy-hulq atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatini bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lish; turli ko'rsatma, u yoki bu harakterda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtaluvchi bo'lishi; oqilona harakterlarga undovchi bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini to'g'ri yo'lga solish va ijtimoiy talablarga moslashtirish maqsadida quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

### **Rag'batlantirish va jazolash usullari.**

<ol style="list-style-type: none"><li>1. Ishonch bildirish</li><li>2. Istiqbol ko'rsatish.</li><li>3. Sovg'a berish.</li><li>4. Maqtov yorlig'i berish.</li><li>5. Qo'llab quvvatlash.</li><li>6. Mas'uliyat va jamoaning minnatdorchilik ko'rsatish.</li></ol>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Tanbeh berish.</li><li>2. Ogohlantirish.</li><li>3. Hayfsan berish.</li><li>4. Uyaltirish.</li><li>5. Majburlash.</li></ol>
---	--

Sinf rahbarlari bu usullardan foydalanish xususiyatlariga alohida e'tibor berish lozim. Rag'batlantirish va jazolash usulida o'quvchi shaxsi emas, balki ayni vaqtda xatti-harakati, qiziqishlar bolaning individual xususiyati, xodisa yuz berayotgan vaziyat, sabab-oqibatlar nazarda tutiladi. Rag'batlantirish va jazolash qancha ko'p qo'llanilsa shuncha ta'siri kamayib ketadi. Rag'batlantirish va jazolash yolg'iz o'quvchiga yoki sinfga yohud maktab jamoasiga qo'llashi mumkin. Rag'batlantirish yozma, og'zaki, imo-ishora shakllari qo'llaniladi. Imo-ishora bilan boshini qimirlatib, tabassum va yuz-qo'l harakatlari bilan ma'qullash yoki yozma ravishda ma'qullash shakllari mavjud. Maktab jazo choralari o'qituvchilar va ma'muriyatining og'zaki, tanbehi, sinf o'quvchilarining o'rtasida ogohlantirish choralari ko'rsatish mumkin. Sinf rahbarining ushbu metodlardan

foydalanishi va pedagogik mahoratni egallashi o'quvchi shaxsini shakllantirish garovidir.

Bunda har bir sinf rahbari o'quvchi shaxsini shakllantirishda quyidagi mahorat tamoyillarini asos qilib olishlari lozim:

– tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishdan maqsad milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish va e'tiqodiga aylantirishdan iborat ekanligi;

– tarbiya jarayonining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;

– tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyani ta'lim bilan uzviyligini ta'minlash;

– tarbiya jarayonida bolalarni tarbiyalangan darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;

– bola shaxsiga hurmat va talabchanlik, kabi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkonga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta'minlovchi muhim omil pedagogik mahoratdir.

Tarbiyachining pedagogik mahorati ko'p qirrali bo'lib u:

– mehribon bolalar hamkorligida;

– o'quv-tarbiya jarayonidagi hamkorlikda;

– bolalarning qayg'u-hasrati, g'ami va omadsizligiga hamdard bo'lishda;

– muomala madaniyatida;

– chuqur bilim egasi bo'lishida;

– o'qituvchining ruhiy holatida (samimiylik xayrixohligi, oliyjanoblighi);

jamoalar bilan ishlashda vaziyatni ijobiy tomonga san'atkorona yo'naltirishda namoyoi bo'ladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotida har bir hunar, u yoki bu ijtimoiy siyosiy masalalarni hal qilishda insondagi mahorat talab etishini xalq og'zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarda, afsona, doston, ertak, qissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda

hurfiylik, dono ma'rifatparvar mutafakkirlarimizning asarlarida turlicha talqin etilgan.

**Muomala mahorati.** Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyalanganligi, odobliligi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalani asosiy vositasi til. Xalqimizda shunday naql bor “Bola shirin so'zning gadoyi”, bas shunday ekan tarbiyachi muomalasida tilga juda ehtiyotkor bo'lishi kerak. Tili shirin, xushmuomala o'qituvchi eng obro'lidir. Husayn Voiz Koshifiy shunday degan edilar: “Haq vaqtini so'zlar aytursizlar yaxshi so'zdin bo'lakni ayt mangizlar va ko'p so'zlamog ko'ngilni qaro qilur” yoki “Mumkin ersa yaxshi so'z qil oshkor, yaxshi so'zdin xo'b yo'qdur yodgor”; “Nasihatin shirin so'zu muloyimlik birla ibtido qilgan, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushro'ylik ko'rgazmayiy nasihat korga kelmas”.

Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahoratida eng avvalo til shirinligi, “Shirin so'z ko'ngillar uchun bamisli asaldir” degan edi.

Kaykovus o'zinipg “Qobusnoma” asarida “Suxandonlik bila baland martabal bo'lmoq” zikrida shunday hikoyatni keltiradi:

Xorun-ar Rashid bir tush ko'rdiki, og'zidan barcha tishlari to'kilmish. Erta tong turib bul tushning ta'birini aytuvchini chaqirib so'radikim, .. bu tushning ta'biri nedur?”, “Andog'kim, sendan o'zga hech kim qolmagsidur”. Bu so'zni eshitibog'on Xorun ar-Rashid “Mening yuzimga bundog dardlig va anduqlig' so'zni aytding.

Mening barcha qarindoshlarim o'lsalar, so'ngra men qandog' ishga yararman va na yanglig' ruzg'or so'rarman?” – dedi va unga yuz tayoq urmoq buyurdi.

So'ngra yana bir ta'birchini chaqirib so'radi.

...Ta'birchi dedi: “Ey amir al mo'min-in, sening umring barcha akrabotlaring umridan uzoq bo'lur’ Xorun ar-Rashid: dedi: “Barcha aqling yo'li birdur va ikkovingning ta'biring negizi bir erga borur, ammo bu iborat bila ul iboratning orasida farq bag'oyat ko'pdur”. Buyurdi so'nggi ta'birchiga yuz tillo berdilar.

Bir donishmand jamoaga qarab: – bir gapim bor, uni ming so'mga sotaman, istovchilar bo'lsa marhamat! – dedi. Suhbat ishtirokchilari hayron qolishib “qanday

gap ekan” – deb so'rabdilar. Shunda donishmand, bu gap: – “o'ylab ish qil”! degani, debdi, donishmandning bu g'oyasidan shuni anglamoq lozimki, o'ylab ish qilgan odam muomalasida qiyofasi bo'lishi (bosh, yuz va xatti-harakatlarini odob yuzasidan boshqarishi) kerak ekan. [23; 112].

Qo'pol, odobsiz gaplarga o'rin qoldirmaslik, bola ishtaxsiga tegadigan qo'pol muomala qilish o'qituvchining izzati va obro'siga putur etkazadi.

Pedagog olim Suxomlinskiy muomala mahoratini kuchi va uning yashirin sirlarini “Bolalarga fido” asarida shunday bayon etkan edi: “... Yuksak tuyg'u madaniyatga ega bo'lgan o'qituvchi bog'chaning kayfiyati noxushligini darhol fahmlaydi. Bu eng avvalo uning ko'zidan bilinadi, ...U bola ko'nglidagi tashvishni sezganini, qanday yo'l bilandur ma'lum qilish yo'lini topadi. ...Keyin bolani tanho topib, surishtirishi ham mumkin.

Bolaning ahvolini tushunish, unga hamdard bo'lish, madad berish kerak.

Ko'pincha hamdardlik, rahmdillik chin ko'ngildan gaplashish bolaning diliga xush keladigan eng yaqin yordam bo'ladi. Beparvolik, loqaydlik esa bolaning dilini larzaga soladi!”

Bola qalbini nurafshon qiluvchi vosita o'qituvchining jonli so'zi, uning ruhini tushiruvchi ham o'sha so'zning bayonidir. Xalqda “Gapdan gapning farqi bor, o'ttiz ikki narhi bor” deb bejiz aytilmagan.

**Tarbiyachining adolat bilan ish tushsh mahorati.** Adolat iymon – e'tiqodni, pok niyatga eltuvchi haqni nohaqdan ajratuvchi bir o'lchovdir.

Adolat insonlar hulqini baholovchi muhim mezondir. O'tmish ajdodlarimiz adolat va adolatsizlyakka alohida e'tibor berib bu tushunchani siyosiy, falsafiy, hukuqiy, axloqiy nuqtai nazardan turlicha talqin etab komil insonni tarbiyasida u katta vosita ekanligani u asarlarida bayon etganlar.

Amir Temur saltanatni boshqarishning bosh mezoni adolat deb hisoblagan edi. U o'zining pand nasihatlarida ham yosh avlodni adolatli bo'lishga chorlaydi: “Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim. ...Qaysi mamlakatni zabt etkan bo'lsam, o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa o'z farzandimdek ko'rdim” degan edi.



Voiz Koshifiy “Axloqi Muhsini” asarida shunday yozgan edi: “Adolat – bu insonlarni bir-biriga yaxshilik ko'rsatishidir” [23; 124].

Adolat va adolatsizlik asriy ko'rinishlari insonni qilmishi, harakati, tili muomala, madaniyati, tashqi qiyofasida o'z aksinn topadi.

**Pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati.** Tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati o'quvchiga u yoki bu yuksak axloqiy sifatlarning mohiyatini anglatish jarayonida qo'llanadigan o'qituvchi-tarbiyachining ish usullaridan biridir.

O'qituvchi III sinfda “Ertak ketidan ertak” mavzusidagi suhbatida o'quvchilarga dastlab ertak mazmunini bayon etadi:

“Ota o'z 10 yashar o'g'li bilan daladan qaytayotib, yo'l ustida tushib yotgan bir taqani ko'radi va o'g'liga deydi: Taqani ol!

Eski taqa uchun egilib o'tiramanmi – deb gap qaytardi o'g'li. Otasi indamasdan o'zi egilib, taqani oladi-da, yo'lida davom etadi. Kun issiq edi. Bola chanqay boshlaydi. Bir oz yo'l yurganidan keyin olcha sotib o'tirgan baqqol ko'rinadi. Otasi boyagi taqani olchaga almashtirib, belbog'iga tugib oladi. O'g'liga ko'z-ko'z qilib, bir dona olchani og'ziga tashladi-da, bir donasini erga tashladi. O'g'li darrov egilib olchani oladi va chanqog'ini bostirmoqchi bo'lib og'ziga soladi. Otasi olchani ketma-ket tashlaydi. O'g'li o'n-o'n besh marta egilib, olchalarni terib olib eganidan so'ng nihoyat otasi to'xtaydi va belbog'ida qolgan olchalarni o'g'liga uzata turib deydi:

Ko'rdingmn o'g'lim, sen taqani ko'tarib olish uchun bir marta egilishga eringan eding, olchalarni terib olish uchun o'n-o'n besh marta egilding. Bundan keyin esingda bo'lsin, agar engil mehnatni og'ir deb hisoblasang, undan battar og'iriga duch kelasan” [13; 145].

Bu ertakdagi pedagogik ta'sirning salbiy va ijobiy ko'rinishlarini bolalarga izohlashda o'qituvchi quyidagi savollar orqali tarbiyaviy mahorat bilan aniqladi.

Otani talabi to'g'ri-mi, yoki yo'q-mi? Sababini ochib bering.

Otani bolaga mehnatdan bosh tortmaslik uchun tutgan ish usuli to'g'ri-mi? Bolaga dastlab o'z harakati bilan o'rnak bo'lib, so'ng xatosini tushuntiradi.

Bu borada sizlarning fikr va munosabatlaringiz qanday?

Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning kuyidagi usullaridan foydalanildi:

Bolaga qo'yilgan talab, pedagogik ta'sir ko'rsatish.

O'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi-tarbiyachi o'z maqsadiga erishish uchun doimo o'kuvchilarga o'z talablari bilan yondashadi. Ularni rag'batlantirdi, ogohlantirdi, tanbeh berdi.

O'qituvchi-tarbiyachini pedagogik asosida qo'yilgan talablarini tushuntirish, nojo'ya harakatlardan bolalarni saqlash, ayniqsa kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini maktab va jamoaga moslashgunga qadar ketma-ket talablar qo'yiladi.

Yuqoridagi talablarning qanchalik ta'sir etishi tarbiyachining pedagogik mahorati va obro'yiga bog'liqdir. Talablarning qo'yilish shakllari:

O'qituvchi-tarbiyachi tomonidan talabning to'g'ri qo'yilishi.

Bunday talab bolalar jamoasi bilan yashlashni dastlabki bosqichidir. Ijodkor-pedagog A.S.Makarenko "... Samimiy oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa, jamoani tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi", degan edi. Bunday talablar jamoani bir maqsad yo'liga boshlash uchun:

- talabni ijobiy va bolaning xatti-harakatlariga to'sqinlik qilmasligi;
- talab aniq va tushunarli bo'lishi;
- qo'yilgan talab natijasini bilish;
- talab ochiq chehra, samimiy bir ohangda berilishi: iltimos, maslahat, yaxshi niyatta chorlash;
- talab bolalarning yoshi, bilim saviyasiga mos bo'lishi;
- talablarda kesatish, luqma, minnat qilib bo'lmasligi va boshqalar.

Tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishning yana bir shakli o'quvchi va o'quvchilar jamoasini istiqloq yo'liga boshlashidir. Bunda jamoada tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida oshkora va ishonch bo'lishi, o'z-o'zini boshqarish, an'ana va qonunlarga amal qilinishi muhimdir.

Tarbiyachining o'quvchilar jamoasini jipslashtirishdagi mahorati. Kishilik jamoasi paydo bo'lgan davrdan boshlab inson hech qachon yolg'iz yashay olmagan. Jamoani tashkil qilish va uning tarbiyaviy ta'sirining nazariy va amaliy asoslari mutafakkir va olimlar tomonidan o'rganib ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilg'or tajribalarga suyanib o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o'rtoqlik-do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini tarbiyalash mahoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular:

- sinf boshlang'ich jamoasini tarbiyalash va ularda o'zaro munosabat aloqalarini yaratish.

- o'quvchilar kundalik faoliyatlarining hamma qirralarida jamoaga jipslashtirish.

- shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish.

- jamoada bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvat va sahiylik, do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilar jamoalari tashkil qilishda o'qituvchidai turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi:

- 1.O'qituvchi jamoa a'zolarini yangi sharoitga (maktabning I sinfidan boshlab) moslashuv davrida ularga ishonch, xurmat, xushmuomalalik, talablarni to'g'ri qo'ya bilish shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bulish talab etiladi;

2. O'quvchilar jamoasidagi etaklovchi kuch tayanch o'zagini tanlash;

Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish;

Jamoadada yangi an'ana, qonun-qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish;

Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

## **II BOB. O‘QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

### **2.1. Ota-onalarga bola tarbiyasiga oid bilimlar berish shakllari**

Mamlakatimiz mustaqilligi jamiyatimizning barcha jabhalarida shu jumladan oila, uning iqtisodiy- ma'naviy manfaatlarini himoya qilish. Sog'lom avlodni tarbiyalash oilada sharqona tarbiyani tiklash kabi bir qator muammolarni hal etishga imkon berdi. Oila bolaning shaxsni tug'ri yo'lga soluvchi muhim omildir. Bolani jismoniy tarbiyalash bular axloq va mehnat tarbiyasini berish oilada shakllanadi, bolaning tafakkuri oilada rivojlana boshlanadi. Bizning davlatimizda bola tarbiyasida maktab bilan oilaning maqsadi bitta. O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasining 64 moddasida ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur deyiladi. Ota-ona farzand oldidagi burchini bajarmog'i kerak, degan edi. Ota-ona burchining asosiy yunalishlari.

1. Oilaviy shart-sharoit va ahil hamjamiyat oilani yaratish.
2. Oilada farzand tug'ilishi orzusi bilan yashash.
3. Bola tarbiyasida tug'ilgan kunni nishonlashning ahamiyati.
4. Ilm olishga shart-sharoit yaratish.
5. Farzandning ichki dunyosi: orzu, uy-xayollari, quvonch va muvaffaqiyatsizligiga sherik bo'lish.
6. Mehnatga hurmat va quvonch hissini tarbiyalash.
7. Bolalarga hamfikir, hamdard bo'luvchi ustoz mehnatini ardoqlash.
8. Har bir inson shu Vatanda ulgayadi, voyaga yetadi. Shu bois bolada vatanparvarlik hissini tarbiyalash lozimdir.

Oila bilan maktab hamkorligi barkamol inson tarbiyasidagi muhim omillardan biridir, maktabdagi o'quv tarbiya ishlarining yuqori saviyada bo'lishi o'quvchilarni tarbiyalangan darajasi ota-onalariga bog'likdir.

Maktablarning oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan ramkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, xilma-xil va o'zaro bog'lik bo'lgan shakl va usullar yordamida rejali va izchil ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolalarni har kuni kuzatuvchi, ularning rivojlanishida ijobiy va salbiy tomonlarini sezuvchi va ota-onalarga bolaga ta'sir qilishning eng samarali usularini maslahat beruvchi tarbiyachilar oila bilan juda ko'p xilma-xil ishlarni olib boradilar.

Maktab muassalarining ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Maktab xodimlarining ota-onalar va oila bilan ramkorlikdagi ishlarining eng keng tarkalgan shakl va usullaridan bir nechalarini keltiramiz:

a) Ota-ona va oila bilan yakkama-yakka ishlash.

Ilgor pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta aramiyatga ega va kutilgan samaralarni beradi. Bunda o'qituvchi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. Buning natijasida tarbiyachi bilan oila o'rtasida do'stlik munosabatlari, o'zaro hurmat va ishonch tezrok o'rnatiladi.

b) Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil kilinadigan ishlar. (Bularga ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari kiradi).

v) Ko'rsatmali ishlar

Ishning bu turi: ko'rgazmalar, fotomontajlar, bolalarning ishlarini namoyish qilish, oilaviy tarbiyaning turli masalalari bo'yicha materiallar solingan papka va shu kabilarni qamrab oladi. Bu shakllar boshqacha ram bo'lishi mumkin. Bu ishga ijodiy yondoshish maktab direktori, o'qituvchilari hamda ota-onalarning o'zlariga ham bog'likdir.

g) Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan tanishish.

d) Ota-onalarga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Bola yashab turgan oilani o'rganish, ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. O'qituvchi oilaga tekshiruvchi sifatida emas, balki maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi.

Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsadi bola tarbiyalanayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa ota-onalarga yordam ko'rsatishdir.

Bolalarni uylariga borib ko'rish ishi ma'lum maqsad asosida tashkil etilgan oilaviy tarbiya bilan tanishish, bolaning oiladagi xulqining o'ziga xos xususiyatlarining aniqlashdan iborat bo'lib qolmay, balki ota-onalar bilan yakka-yakka va jamoa tarzida tashkil etiladigan ishlarning mazmunini, ularning turli shakllarini belgilab olishga ram imkoniyat tug'diradi. Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odob bilan o'tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlarini ochib berilsa, ota-onalarning o'qituvchiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi.

O'qituvchi suhbat davomida shaxsiy kuzatishlar, ota-onalarga, oilaning boshqa a'zolariga va bolaga berilgan savollar orqali bolani, uning oilasini yanada yaxshiroq bilib olishga imkon beruvchi o'ziga zarur ma'lumotlarni oladi. Bularning hammasi bola tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tashrif buyurish haqida ota-onalarni oldindan ogohlantirish kerak, bunda oila uchun, o'zi uchun qulay kun tanlanadi. Suhbat vaqtida hech qanday yozuv olib bormaslik, ota-onalar bilan keskin, nasihatgo'ylik ohangida gaplashmaslik zarur, faqat maslahat, tilak, taklif kiritish mumkin. Oilani borib kurishda olingan taasurotlarni kalendar rejaning "Tarbiyaviy ishlarni hisobga olish" ustuniga yozib qo'yish lozim. Oilani borib ko'rishning maqsadi va mazmuni tarbiyachining rejasida, hisobida va maxsus kundaligida aks ettirilishi kerak. Oilani yiliga kamida ikki marta borib ko'rish tavsiya etiladi.

### **Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar**

Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarkalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat – bolarni ertalab qabul qilish va junatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular o'qituvchi va ota-onalarning bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga,

bolaning muvaffaqiyatlari, kamchiliklari, xulqi va sog'ligidagi o'zgarishlarni kuzatishga yordam beradi.

O'qituvchining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'ladi, lekin bolaning kayfiyatini aniqlab olishda, uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

### **Guruhiy maslahatlar, majlislar**

Guruhiy maslahatlar ota-onalarga mavjud ma'lumotlarni ma'lum qilishnigina nazarda tutmaydi, balki oilaviy tarbiya tajriba almashinuvini ham kuzda tutadi. Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabiyotni va ko'rgazmali materialni tanlaydi, maslahat o'tkaziladigan anik vaqt haqida e'lon qiladi, u haqida ota-onalarni ogohlantiradi. Bunday maslahatlar onda-sonda va muntazam o'tkazilishi mumkin. Ota-onalar jamoasi bilan ishlash guruhiy va umumiy majlislar shaklida o'tkaziladi.

Guruhiy va umumiy majlislar ota-onalar o'z vazifalarini chukurroq tushunishlariga va bolalar tarbiyasida oilaning ahamiyatini anglashlarida, pedagogik bilimlarni egallashlariga qaratilgan.

Ota-onalarning guruhiy majlislari zaruriyatga qarab yil choragida bir marta o'tkaziladi. Bunday majlislardan maqsad ota-onalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur sinfdagi o'quvchilarni tarbiyalash masalalari muhokama qilinadi, sinf ishi bilan bog'lik tashkiliy masalalar ko'rib chiqiladi, ota-onalarning bayramda ishtirok etishlari haqida, ekskursiyalar haqida gaplashiladi. Majlisning mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik kurishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarning yoshini hisobga olish zarur. Majlis vaqtida hammaning oldida ba'zi bolalar va ularning ota-onalari haqida salbiy fikr bildirish kerak emas, bunday gaplarni ota-ona bilan begona tinglovchilar ishtirokisiz do'stona shaklda olib borish o'rinli. Agar ota-onalar o'qituvchiga bolalari haqida gapirib berishni iltimos qilib murojaat qilishsa, u holda tarbiyachi, avval bolaning ijobiy tomonlari haqida keyin esa xulqining xavotir olish mumkin bo'ladigan va salbiy tomonlari haqida ma'lum qilishi lozim.

Majlis oxirida keyingi majlis mavzusini e'lon qilish, ba'zi ota-onalar bilan bolalarni oilada tarbiyalash tajribasini o'rtoqlashish va boshqa maslahatlarni berish kerak. Ota-onalar bilan maktab xodimlarining birgalikdagi faoliyati.

Ota-onalar bilan maktab xodimlarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni maktab muassasasi ishlayotgan sharoitlarga bog'likdir. Ota-onalar maktab maydonini ko'kalamzorlashtirish, uchastkadagi jihozlarni va qo'llanmalarni ta'mirlash, sog'lomlashtirish ishlarini o'tkazishda yordam ko'rsatishlari mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ota-onalarning ishi ijtimoiy xarakterga ega va ixtiyoriylikka asoslangan bo'lishi kerak. Shuning uchun bu faoliyatga jalb qilishning asosiy yo'li iltimos, ishontirish, maslahat berishdan iborat bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda bolalar to'g'risida, oila haqida g'amho'rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir.

“Jamiyki yaxshi narsalar bolalarimizga” shiori yanada baralla jaranglamokda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir. Malumki bola maktabga kelgunga qadar ham asosan oilada tabiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarash, huquqi va didiga tasir ko'rsatishi tabiiy holdir. Oila azolarining manaviy birligi, yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ota-onalarning o'ziga va bolalarga bo'lgan talabchanligi katta va kichiklarning o'zaro munosabatlari, do'stona muhit, ishonch va bir birini tushunish oila, maktab va jamiyatchilikning bolalar tarbiyasi olib boriladigan muhim omillardan biridir. Bunday birlikning ruyobga chikishida eng avvalo ota-onalarning faolligini oilaviy hayotda o'z ifodasini topadi.

Bola o'sib, ulg'ayar ekan, u avvalo oilada tarbiya topadi, so'ngra tarbiya maktab va jamoa birligida rivojlanib boradi. Hozirgi davrda usib kelayotgan yosh avlodga oilada va maktabda tarbiya berish dolzarb masala bulib qomoqda.

**Oila** – jamiyatning negizi. “Bizning davlatimizni,-degan edi I.A.Karimov,- katta bir oila deb tushinish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va katta tartib



bo'lmasa, oilaning barcha azolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari olamida quriladi. O'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab extiyohlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, oilasining, qarindosh urug'larining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amho'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada manaviy qadriyat, inson qalbining gavharidir". [3; 117].

Bugungi O'zbekiston mustaqilligining mustahkamligi uning kelajak ravnaqi, avvalo uning fuqorolariga, manaviy-axloqiy barkamoligiga, manaviy-siyosiy yetukligiga, milliy o'zlikni qanchalik anglay olishiga ko'p jihatdan bog'lik. Bunda esa o'z-o'zidan malumki, oilada va maktabda singdirilgan tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Farzand ota-onalaridek bo'lishga intiladi. Bola ulg'ayib maktabga qadam qo'yganidan boshlab ota-ona bolaning o'qishini nazorat qilishi, maktab bilan, o'qituvchi bilan aloqada bo'lishi lozim.

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni tarbiyalashda maktab, oila va jamiyatning birligi yaxshi natijalarni beradi. Tarbiyaning asosiy maksadi, bolada psixofizik kamchiliklarni korreksiyalashdan iboratdir. Bu esa faqatgina maktabning vazifasi bo'libgina qolmay bolaning oiladagi tarbiyasiga ham bog'likdir. Oiladagi tarbiya bolaning psixikasiga, rivojlanish xususiyatlariga, jismoniy va aqliy rivojlanishiga o'z tasirini ko'rsatadi.

Ba'zi ota-onalar bunday xususiyatlarni tushunib yetmaydilar. Nogiron bolalarga ba'zi oilalarda haddan tashqari erkalash, ularni xarakterlariga salbiy tasir ko'rsatadigan darajada hamma narsaga beriladi. Bunday xususiyatlar keyinchalik egoistlik xarakterini shakllanishiga olib keladi va aksincha bazi oilalarda rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni kamsitish, ularni o'zgalardan chetlashtirishi kabi hollari uchraydi. Bunday munosabatlar bolada boshqa odamlarga nisbata

nafrat uyg'otishiga olib kelishi mumkin. Bunday munosabatlarni hisobga olgan holda tarbiyachi defetologlarni vazifasini ota-onalar bilan majlislar o'tkazishdir.

Psixologik kollektiv ota-onalarda ishonch hislarini hosil qilishi kerak. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki ota-onalarning bazilari maktabga nisbatan ishonchsizlik bilan qaraydilar. Ota-onalar uchun alohida ma'ruza va suhbatlar tashkil etish kerak, hamda malum mavzularda o'quvchilar ham ota-onalar bilan birgalikda diskussiyalar o'tkazib turishi lozim. Bunday bahslar bir tomondan o'quvchilarning o'z kuchiga ishonchini oshiradi. Ikkinchidan esa ota-onalar o'z farzandlarining nimaga qodir ekanliklarini ko'prok tushinib yetadilar. Bunday hamkorliklar bolani kelajakda hayotda o'z o'rnini to'g'ri tanlashga, kasbini to'g'ri tanlay olishga hamda malum bir psixik va jismoniy kamchililarni korreksiyalashga yordam beradi.

Oila va maktab birligi o'quvchilarda mehnatga bo'lgan to'g'ri munosabatlarni shakllantiradi, ota-onalar bolalarni individual xususiyatlari haqida albatta tarbiyachi va o'quvchilarga malumotlar berib turishlar kerak.

Oilada yangi inson kamol topayotgan, bo'lajak mehnat kishisi shakllanayotgan ekan, bu har bir ota-onadan masuliyat, burch, vijdon va or-nomusni talab etadi.

Pedagoglar ota-onalar bilan bo'ladigan suhbatlarda bolalarni axloqiy shakllanishini kattalarning o'ziga, ularning namunasiga o'z shaxslarni takomillashtirishga bo'lgan intilishlariga bog'lik ekanligini odob bilan eslatib qo'yishlari lozim.

Pedagog ota-onalar bilan suhbat chog'ida ularning psixologik xususiyatlariga tayanadi. Ota-onalarning pedagogik layoqati va oilaviy tarbiya xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabdagi vaziyat haqidagi kitob materillari va ularda keltirilgan misollar, maslahatlar, tavsiyanomalardan ijodiy foydalaniladi.

**Suhbat** – bu ikki tomon pedagog va ota-onalarning muloqotidir. U fikr almashishga muhokamalarda o'zaro hamjihatlikda o'rnatilishiga yordam berishi kerak. Shuning uchun eng muhimi, tarbiyachining xayrihohlik muhitini yaratishdir.

A. Tarbiya jarayonida oila birligini nazariy va amaliy ahamiyati.

B. O‘sib kelayotgan yosh avlodga har tamonlama talim –tarbiya berish, qadim-qadimdan rivojlanib kelmokda.

C. Maktabda tibbiyot xodimlari bolalarning sog‘ligi va jismoniy o‘shining ahvolini muntazam nazorat qilib boriladi. Ota-onalarga sanitariya va gigiyena, bola hayoti, tug‘ri, ovqatlanishi va jismoniy tarbiyani tashkil etish masalalari bo‘yicha maslahatlar berib boriladi.

Maktab va oila hamkorligida olib boriladigan ishlarning eng keng tarqalgan shakli va guruhlaridan bir nechalarini keltiramiz:

1. Ota-ona va oila bilan yakkama–yakka ishlash.
2. Ota-onalar bilan jamoa tarzda tashkil qilinadigan ishlar.
3. Ko‘rsatmali ishlar.
4. Bolaning oilasini borib kurish va oila azolari bilan yaqindan tanishish.
5. Ota-onalarga pedagogik ta’lim berish va boshqalar.

Bulardan tashqari ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar, guruhiy maslahatlar va majlislar oilaviy tarbiya tajribasini almashish bo‘yicha anjumanlar. Ota-onalarga bolalarni to‘g‘ri ovqatlantirish, shaxsiy gigiyena qoidalriga rioya qilish kabi tushunchalar ham kiradi, bunda eng avvalo ota-ona va pedagoglarning o‘zlari namuna bo‘lishlari kerak.

## **2.2. Sinfдан tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchi shaxsini shakllantirish yo‘llari**

Sinf rahbari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekan, bu borada tinimsiz izlanishlarni olib borish, o‘quvchi faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish ko‘zlagan samaradorlikka olib keladi. Bunda, ayniqsa, sinf rahbarlari tomonidan tashkil etiladigan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ahamiyati kattadilar.

O‘quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadi, turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi,

qolaversa bular orqali ma'naviy dunyosi boyiydi, darslarda olgan bilimlarini amalda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ldi. Bizga ma'lumki, har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalarni qo'yadi. Ularning har biri o'zga xos belgilarni, bir-biridan farq qiluvchi shakllarni, vositalarni, ijodiy, mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim.. o'quvchilar hayoti bilan ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlari bilan boshlanadi. Mustaqillik bayrami, 1-sentabr, Kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, Mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari, 8-mart, Navro'z bayrami, gullar bayrami kabilar.

Sinf rahbarlarining sinfdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq:

1. Og'zaki ish usullari: turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig'inlar, ma'ruzalar, kitobxonlar konferensiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio jurnallar.

2. Amaliy ish olib borish usullari: turli joylarga sayohatlar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish faoliyati, yosh tabiatshunoslar tugaraklari, shanbaliklar.

3. Ko'rgazmali ish usullari: maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Mana shunday tadbirlar bevosita o'quvchi shaxsini shakllantirishda ishlari bilan bog'liq holda olib boriladi. Bu tadbirlarga material tanlashda eng qimmatli manba bo'lib Prezident I. Karimov asarlari, milliy qadriyatlar hamda o'tgan o'quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlar tahlili hisoblanadi.

Sinf rahbari tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim:

1) tarbiyaviy tadbir o'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi lozim;

2) har bir tarbiyaviy tadbir darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi kerak;

- 3) tarbiyaviy tadbir aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi kerak;
- 4) tadbir orqali boshlangich sinf o'quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanib borishi darkor.

Boshlangich sinflarda sinfdan tashqari tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Tadbirni rejalashtirish;
- Tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish;
- Tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o'quvchilarining barchalarini ishtirok etishini ta'minlash;
- O'quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taksimlash;
- Tadbirni amalga oshirish;
- Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Bosqichlarning har biri o'qituvchi tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi lozim.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Boshlangich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo o'quvchi shaxsini shakllantirish masalasiga, bu borada esa tadbirning ijtimoiy xarakteriga e'tibor berish kerak.

2. Tadbirda yaxshi ishtirok etgan o'quvchini va sinfni maktab jamoasi oldida moddiy, ma'naviy jihatdan rag'batlantirish;

3. Darsdan tashkari tadbirlar orqali o'quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini izlash;

4. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qilishda ba'zi o'quvchi xulqidagi salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish;

5. Boshlangich sinf o'quvchilari bunday tadbirlarda zo'r ishtiyoq bilan qatnashadilar. Ba'zan hamma o'quvchilar ham birdek talabga javob bera olmaydilar, shu sababdan ularning ishtirokiga asta-sekinlik bilan erishish.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har-bir sinf rahbari eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan uquvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i, Vatanga e'tiqod, milliy gurur, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini anglash, ularning darsda olgan bilimlarini amalda isbotlash maqsadida turli ertaliklarni, kechalarni, bellashuvlarni o'tkazish maqsadga muvofiq.

Buning uchun, avvalo milliy qadriyatlar, bayramu-sayillar va urf-odatlar xaqida bolalarda tushuncha xosil qilish, Vatan haqidagi she'rlarni yod oldirish, o'quvchilarning o'zlari chizgan so'ratlar namoyishini tashkil qilish, milliy urf-odatlar aks etgan ko'rinishlarni tayyorlash bilan ertaliklarga tayyorgarlik ko'riladi.

Milliy bayramlarimizni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birga-likda nishonlash, avvalo o'quvchilarda ona-Vatanga, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, g'urur va iftixor hissini tarbiyalaydi. Bu kabi tarbiyaviy ishlarning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining lo'g'at boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlari mustahkamlanadi, xotirasida uzoq vaqt saqlab qoladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quvchilar birdamlikka, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Xuddi shunday ijobiy sifatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiyalab borishda ertaliklarning o'z o'rnini bor.

Ertaliklar bolalar uchun juda qiziqarli, tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan tarbiya vositalaridan biridir. Ertaliklarda deyarli barcha sinf o'quvchilari ishtirok etadilar. Ularga tayyorgarlik ko'rishning o'ziyoq bolalarda qiziqishni o'yg'otadi. Bolalar ertalik munosabati bilan she'r, qo'shiqlar yodlashi, raqs tushishi va albatta milliy qadriyatlarimiz namunalarini bilan tanishishi har tomonlama foydalidir.

Biz amaliyot o‘tagan maktabda ham turli mavzudagi ertaliklar sinf rahbarlari tomonidan o‘tkazildi, ammo ba’zi sinflarda ertaliklar umuman tashkil etilmadi. Bu sohadagi talab va istaklarni o‘rganib chiqib, sinf rahbarlari bilan bir-necha bor ertaliklar uyushtirdik. Shunday ertaliklardan “Sohibqiron Amir Temur bobomiz”, “Biz buyuklar avlodi”, “Vatan va xalq kuychisi” va boshqalar.

Biz ertaliklar tashkil etishda ishtirok etar ekanmiz, uni quyidagi tartibda o‘tkazilishini tavsiya etib qolamiz.

- ertalikning mavzusini tanlash va mavzu yuzasidan materiallar to‘plash;
- ertalikning dasturini rejalashtirish;
- ertalikka mehmonlar taklif etishni rejalashtirish;
- ertalik o‘tkaziladigan joyni aniqlash va bezash;
- ertalikni muvaffaqiyatli o‘tkazish va qatnashchilarni rag‘batlantirish.

Boshlang‘ich sinflarda bu ishlarning davomi sifatida yana tur mavzudagi ertalikni tashkil qilish mumkin. Ertalikda barcha o‘quvchilarni ishtirok etishini ta’minlash lozim. Shuningdek, musiqa o‘qituvchisi yordamida bolalarga alohida va guruh ishtirokida aytiladigan ashulalar o‘rgatiladi. Mana shu tantanaga tayyorgarlik ko‘rishning o‘ziyiq bolalarga benixoya zavq-shavq bag‘ishlaydi. O‘qituvchining bayramga atab devoriy gazeta chiqarishi, unda bahor, tabiatning tasvirlanishi ham bolalarda ko‘tarinki kayfiyatni hosil qiladi. Biz yukorida aytganimizdek, ertalik munosabati bilan bolalarning she’r yodlashi, qo‘shiq va raqslarni, bahor, tabiat, hayvonlar to‘g‘risidagi topishmoq, tez aytishni o‘rganishlari ertalikni qiziqarli, ta’sirchan o‘tishiga katta yordam beradi. Ertalik mazmunini boyitadigan obrazlar: Dehqonbobo, Gullar, Bahoroy, Quyosh bobo, hayvonlardan: Ayiqpolvon, Kuyoncha, Olmaxon, qushlarning ijtimoiy bayramga yanada ko‘rk bag‘ishlab bolalarning qiziqishini yanada oshiradi. Ertalikka ota-onalar va boshqa mehmonlar taklif qilinadi.

Bu ertaliklar orqali o‘quvchilar yurtimiz tabiati, kattalar mehnati haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Qolaversa, bu ertalik orqali bolalar ona-tabiatni asrashga, jonvorlarga ozor bermaslikka, tevarak-atrofnifiloslantirmaslikka, daraxt va ko‘chatlarni ko‘paytirish ishlariga o‘z hissalarini qo‘shishda qatnashadilar.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ko‘lamini kengaytirish, o‘quvchi shaxsini faollashtirish maqsadida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4-sinflari o‘rtasida savol-javob kechalarini o‘tkazish maqsadga muvofiq. Aynan to‘rtinchi sinf o‘quvchilarini nazarda tutishimizdan maqsad, ular bu borada anchagina bilim va ko‘nikmaga egalar. Ayniqsa, ular o‘z sinfi “sha’nini” himoya qiladigan darajaga yetganlar. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiya jarayonida bunday tadbirlarning o‘tkazilishi alohida ahamiyatga ega.

Birinchiidan, bolalarning bekorchi vaqtlari chegaralanadi, shaxsiy sifatlari shakllanadi.

Ikkinchiidan, bolalar dars davomida olgan bilimlarini mustahkamlaydilar.

Uchinchiidan esa, bolalarning uyushqoqlik, bilim olishga havaslari yanada ortadi.

Ana shunday bellashuvlardan biri sifatida “Mening ona – Vatanim” nomli mavzuda o‘tkazish mumkin. Bunda sinf o‘quvchilari ikki guruhga ajratib olinadi, ularning har taraflama tengligiga e‘tibor beriladi. Bu bellashuvni birinchi bosqichda sinf o‘rtasida, keyinchalik, sinflar o‘rtasida, maktablar o‘rtasida ham uyushtirish mumkin. Bu tadbirni tayyorlash uchun kamida bir oy talab qilinadi. Har ikkala tomon kecha o‘tkaziladigan kunni belgilab olgach, boshlangich sinf o‘qituvchilari, maktab direktori va yordamchilari bilan birgalikda kechaning shartlari belgilab olinadi. Bu bellashuv shartlarini quyidagicha tuzish mumkin:

1. Sinflarning o‘zaro tabrigi.
2. Ifodali o‘qish. (Vatan haqidagi shoirlarning she‘rlarini ifodali o‘qib berish, har bir sinfdan bitta bola o‘qiydi.)
3. Yosh rassomlar ko‘rigi. (ma’lum vaqt davomida har bir sinfning bittadan yosh rassomi Vatan manzarasi aks etgan suratni chizib berishlari shart);

Guruh ishtirokchilarining o‘zaro maqollarning aytishuvi (bellashuv Vatan mavzusidagi maqollardan iborat bo‘lishi lozim. Bu bellashuvda guruhning barcha ishtirokchilari qatnashadilar);

Savollarga tez javob qaytarish o‘yini.(Savollar O‘zbekiston, uning tarixi, boyliklari, tabiati to‘g‘risida bo‘lishi shart)



## 7. Guruhlarning erkin sharti.

O'quvchilar bellashuv bohonasida ko'plab Vatan, to'g'risidagi she'r va maqollarni yod oladilar. Xalq og'zaki ijodi namunalariga murojaat qilishadi. Bellashuv orqali o'quvchilar dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlashi bilan birga, yuqorida aytganlarimizdan tashqari o'zlariga nisbatan sinfi oldidagi ma'suliyatni his qiladilar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shartlar guruh a'zolaridan astoydil tayyorgarlik ko'rishni, Vatanimiz haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishni, savollarga javob berish uchun esa darslik va qo'llanmalarga murojaat qilishlari talab qiladi.

Boshlangich sinf o'quvchilari bilan bu kabi ishlarga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalariga murojaat qilishlarini, (albatta sinf rahbari va ota-onalar ko'magida) shoirlarning she'rlarini yod olishlari, o'lkashunislik muzeylariga sayohat qilishlarini uyushtirish lozim. Chunki, mana shu ishlar orqali o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanish jarayoni yanada ortadi va yuksaladi.

Sinf rahbari yuqoridagi tadbirlardan tashkil etishda shubhasiz zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish har tomonlama foydalidir. Chunki, pedagogik texnologiyalarning turlaridan tarbiyaviy ishlarda foydalanish nafaqat uning samaradorligini oshiradi, balki o'quvchi shaxsini faollashtiradi va rivojlantiradi. Bularni o'yinli texnologiya, interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Demak, texnologik yondashuv asosida tashkil etilgan tadbirda sinf rahbari va o'quvchi o'rtasida hamkorlik, ularning bir-biriga ta'siri hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish, shaxsni shakllantirishga yo'naltiruvchi uslublar, o'quvchi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, pedagogik jarayonda paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etish, ijodiy ishchanlik muhitini yaratish, o'quvchi faoliyatini baholash kabi o'quv-biluv ishlari amalga oshiriladi.

Bosh maqsad tarbiyaviy ishda barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ekan, ta'lim va tarbiya jarayonini muayyan bosqichlarga bo'lib olish va har bir bosqich uchun xususiy maqsadlarni ham belgilash, shuningdek, bosh va xususiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beruvchi metod hamda usullarni tanlash, bu yo'lda uchraydigan katta-kichik muammolarni hal etish asosida ular o'rtasida o'zaro uyg'unlikni hosil qilishga qaratiladi.

Demak, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning bosh maqsadi bilish jarayonini tashkil etish, mavzu yuzasidan o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish hamda uni amalga oshirish chog'ida quyidagi xususiy maqsadlarni hal etish nazarda tutiladi:

- o'quvchi shaxsini shakllantirishning metodikasini ishlab chiqish;
- o'quvchi shaxsidagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish;
- o'quvchining o'z-o'zini anlashi va boshqarishiga imkoniyat yaratish;
- o'quvchida mustaqil fikrlashni takomillashtirish;
- tarbiyaning shaxs shakllanishidagi o'rnini yuksaltirish;
- o'quvchi shaxsini shakllantirishda faoliyatning ahamiyatini izohlash;
- shaxsni shakllantirishda individual xususiyatlar (shu jumladan, o'quvchilarning yosh xususiyatlari)ni hisobga olish;
- o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuviga erishish va boshqalar.

Ushbu xususiy maqsadlar barkamol shaxsni shakllantirish jarayonida:

- ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish;
- kasb-hunarga yo'llash;
- ma'naviy- axloqiy tarbiya;
- aqliy tarbiya;
- ijtimoiy-g'oyaviy tarbiya;
- jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;
- estetik tarbiya;
- fuqarolik tarbiyasi kabilarni uyg'un holda tashkil etishni taqozo etadi.

Bu borada uyg'unlikka erishish oson emas. Ayni o'rinda amerikalik pedagog Karl Rodjers quyidagi shaxsga yo'naltirilgan modelni taklif qiladi: model mohiyati jihatidan o'quv jarayonida mavjud muhitni osonlashtirish, yengillashtirishdan

iborat. Murakkab bo‘lmagan ta’lim jarayonini tashkil etuvchi o‘qituvchilar “fatsilitatorlar” (ingl. Facilitat – yengillashtirish, osonlashtirish) deb yuritiladilar.

Yengillashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayonini hosil qilishda o‘qituvchi – fatsilitatordan o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, uning xulqidagi salbiy o‘zgarishlarni o‘zgaralar ta’sirida emas, balki o‘zining hatti-harakatlari yordamida, shaxsiy xulq-atvorga tayangan holda bartaraf etish muhim.

K.Rodjersning o‘quv jarayonini yengillashtiruvchi modeli quyidagi to‘qqizta qoidadan iborat:

1. O‘qituvchi o‘zini ham, o‘quvchilarni ham hurmat qilishi va o‘quvchilarni ta’lim olishning shaxsiy ahamiyatini tushunishga yo‘naltirishi zarur.

2. O‘qituvchi ta’lim va tarbiya uchun boshqalar bilan birga o‘zi ham javobgar, mas’uliyatli ekanligini his etishi kerak.

3. O‘qituvchi o‘quv jarayonini shaxsiy tajribasi asosida tashkil etadi.

4. O‘quvchi shaxsan o‘zi yoki boshqalar bilan hamkorlikda shaxsiy dasturini yaratishi va uni g‘oyaviy jihatdan rivojlantirishi kerak. U o‘zi tanlagan yo‘ldan katta ishonch hamda mas’uliyatni his etgan holda borishi zarur.

5. O‘quv jarayonida asta-sekin yengillashtiruvchi muhit yuzaga kelib, uni dastlab fatsilitator boshqarib borsa, keyinchalik o‘quvchilarning o‘zlari mavjud muhitning barqaror bo‘lishini ta’minlaydilar, natijada o‘zaro hamkorlik ikki tomonlama xususiyat kasb etadi.

6. O‘quv jarayoni doimiy holda ta’lim-tarbiya uyg‘unligini ta’minlashga yo‘naltiriladi.

7. Tashqi intizom ichki intizomga almashadi.

8. O‘quvchi ta’lim va tarbiya jarayonlarining mohiyatini baholab boradi, boshqalardan bu haqidagi axborotlarni yig‘adi.

9. Qulay sharoitga ega o‘quv-tarbiya jarayoni o‘quvchilarni chuqur bilim olishga yo‘naltirib turadi va uni hayotiy jarayonlarga yaqinlashtiradi. Natijada ta’limni shaxsga yo‘naltirish bilan birga o‘quvchilarning shaxsiy tashabbuskorliklari ortadi, o‘z-o‘zini shaxsiy hissiyot, intizom va qiziqishlarga muvofiq rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. [12, 207].

Xulosa qilib aytganda, barkamol shaxs tarbiyasiga texnologik yondashuv davr talabi va ijtimoiy-ta'limiy zaruriyat bo'lib, bunday yondashuv pedagogik jarayonning ijodiy xususiyat kasb etishiga xizmat qiladi. Texnologik yondashuv, shuningdek, tarbiyaviy ishlarning qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga o'quvchilar tomonidan tadbir mavzusining mohiyatini chuqur anglab olinishiga yordam beradi. An'anaviy ta'lim esa mashg'ulotlarning bir xil, standart shaklda tashkil etilishini ifodalaydiki, bu jarayonda o'quvchilarning erkin, ijodiy fikrlash imkoniyatlari cheklanib, ular tomonidan tayyor bilimlar sust tinglovchilar sifatida o'zlashtiriladi.

Umuman olganda sinf rahbarlari yordamida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish o'quvchi shaxsini shakllantirish va faollashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, ma'lumki ba'zi o'quvchilar dars jarayonida faol bo'lmasalarda turli tadbir va kechalar, sport musobaqalari, shanbalik va boshqa tadbirlarda faol bo'ladilar. Boshqacha qilib aytganda ular xarakteridagi yashirin sifatlar turli tadbirlarda namoyon bo'lib, bu ularning darslardagi o'zlashtirishlarini ham yuksalishiga olib keladi.

O'quvchilar sinf rahbari boshchiligida turli tadbirlarda qatnashar ekanlar, ularda o'z-o'ziga va o'rtoqlariga nisbatan mas'uliyat, samimiylik, o'rtoqlari bilan do'stona munosabat shakllanadi. O'quvchining bunday holatda sinf rahbariga nisbatan hurmati yanada ortadi, berilgan topshiriqlarni bajonudil bajarishga harakat qiladi.

Sinfdan tashqari ishlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish uning samaradorligini yanada oshiradi, o'quvchida o'z-o'ziga ishonch va faollik, guruh sha'nini himoya qilish kabi ko'nikmalarni tarkib toptiradi.

### **2.3. Muammoga doir tajriba-sinov ishlari tahlili**

Mamlakatimizda yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqli insonlar etib tarbiyalash borasida tahsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Ular uchun qulay, zamonaviy ta'lim dargohlari, tarbiya maskanlari, turli markazlar, dam olish va maishiy xizmat

uyleri yaratildi va jahon andozalari darasida jihozlandi. Bu kabi faoliyat yuritayotgan maskanlarda birinchi navbatda yoshlar ma'naviyatini shakllantirish masalasi turadi.

Ma'lumki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirish ham o'ta dolzarb masaladir. Negaki, ular axborotlar qurshovi asrida yashamoqdalar. Shuning uchun bu borada maktab va o'qituvchining yetakchilik rolini ko'chaytirish va oila bilan hamkorlik tizimini yuksaltirish yanada muhim vazifadir. Bu yoshdagi bolalar hayotida hamon o'yinga qiziqish ustunlik qilsada, ammo ular o'ta qiziquvchan, taqlidchan, ishonuvchan bo'ldilar. Shuning ularni bu yoshda niholdek parvarishlash, to'g'ri yo'naltirish lozim bo'ladi. Bu davrda o'quvchilar o'quvchilarning aqliy, jismoniy, psixologik xususiyatlarini bilish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu davrda o'quvchi shaxsida tegishli axloqiy - ma'naviy fazilatlar shakllanadi, bunda egallangan bilimlar asosida tafakkurni tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Bunday jarayonda sinf rahbarining tutgan o'rni beqiyosdir.

Xo'sh, bu masala ota-onalar va maktab hamkorligida qanday amalga oshirilmoqda, ularning o'quvchi tarbiyasidagi fikrlari bir xilmi, maktab va oila o'rtasida hamkorlik qay darajada shakllangan kabi savollarga javob olish uchun bu borada olib borayotgan ishlariga e'tiborni qaratdik.

Buning uchun biz tajriba-sinov ishlarini olib borib, **Qarshi shahridagi 41-o'rta umumta'lim maktabni eksperiment maydonchasi sifatida tanladik. Tajriba avvalida kuzatish ishlari tashkil etilib, unda o'qituvchi faoliyati bilan tanishdik, ilg'or tajribalarni o'zlashtirdik. Bir necha bor ota-onalar majlislarida ishtirok etib, sinf rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlarini tahlil qildik. Tadqiqotimiz obyektini ota-onalar va o'qituvchilar bo'lganligi bois ularga og'zaki va yozma savol variantlari bilan murojat qildik. Jami bo'lib tajriba-sinov ishlarida 12 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchi va 38 nafar ota -ona ishtirok etdi.**

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ma'naviyat, axloq, odob, ma'naviy –axloqiy tarbiyani shakllantiruvchi vosita va manbalar haqida savollar bilan murojaat qildik. So'rovnomada jami 16 nafar o'qituvchi ishtirok etdi

So'rovnomamizda quyidagi savollar o'z aksini topdi: (ILOVA-1)

Bu so'rovnomalar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini baholi qudrat yo'lga qo'yganlar. Bular ota-onalar majlislari, o'quvchilar kundalik daftarlari orqaligina xolos. Vaholanki, hamkorlikning juda ko'p turlari va shakllari ham mavjudki, negadir sinf rahbarlari o'z faoliyatlarida bu hamkorlik turlaridan foydalanishmaydi. Buning sababini so'rganimizda esa o'qituvchilar vaqtlarining yetishmasligi va boshqa sabablarni ko'rsatishdi. O'qituvchilardan hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida taklif va mulohaza so'rganimizda esa ular oilaga tashrifni ayta olishdi xolos. Ammo hech birlari o'z faoliyatlarida o'quvchining oilasiga tashrif buyurmaganlar, ota-onalar bilan esa telefon orqali muloqot o'rnatib qo'ya qolganlar.

Yuqoridagi tahlildan ma'lumki, sinf rahbarlari ota-onalar bilan hamkorlik zarur ekanligi va bu borada o'quvchi tarbiyasida yagona talab bo'lishi lozimligini kasbiy faoliyatlaridan kelib chiqqan holda biladilar.

Biz tajriba sinov ishlarini davom ettirib, ota-onalar o'rtasida anketa so'rovnomalari o'tkazdik. Tajribalarimizda jami 38 nafar ota-ona qatnashdi. Ota-onalar e'tiboriga quyidagi savollar havola etildi:

1. Shaxs tushunchasining mazmunini izohlab bering?
2. Farzandingiz xarakterini qaysi temperamentga xos ekanligi bilasizmi?
3. Farzandingizning har tomonlama kamol topib, sog'lom hayot kechirishi kimlarga bog'liq deb hisoblaysiz?
4. Farzandingizning tashqi qiyofasi kimga o'xshaydi, siz buni nima deb izohlaysiz?
5. Farzandingizning kun tartibini kuzatib, zarur ko'rsatmalar berib borasizmi?
6. Farzandingiz xulqining ijobiy tomonga o'zgarishida ta'lim-tarbiyaning yetakchilik roli bormi?

7. Sinf rahbari bilan yana qanday vaziyatlarda muloqot o‘rnatasiz?
8. Sinf rahbari haqida farzandingizning fikri qanday?
9. Sinf rahbari bilan yana qanday sharoitda muloqot o‘rnatgansiz?
10. Farzandingizning do‘stlari haqida ma’lumotga egamisiz?
11. Farzand tarbiyasiga oid ma’ruzalar tinglashni xohlaysizmi?

Respondent ota-onalar tomonidan yuqorida qayd etilgan savollarga qaytarilgan javoblar mazmunini tahlil etish natijasida quyidagi ko‘rsatkichlarni qayd etish mumkin. Bunda ota-onalarning 84 % shaxs tushunchasining mazmuni haqidagi bilimlarga ega emaslar, bu boradagi ijobiy javoblar soni esa 16 % ni tashkil etdi. Ammo ularning sinf rahbari haqida fikrlari ijobiy va farzandlari ham sinf rahbari haqida faqatgina iliq so‘zlarni aytishlarini qayd etganlar. Ko‘rinadiki, sinf rahbari o‘z faoliyati jarayonida o‘quvchilarning mehrini qozona olgan. Ota-onalarda ham yaxshi tasavvur o‘yg‘ota olgan.

Olingan natijalar tajriba boshidagi natijalar bilan taqqoslandi va buni quyidagi javal asosida ko‘rsatishga harakat qildik.

### **Guruhlarning tajriba boshi va yakunidagi umumiy ko‘rsatkichlari**

2-jadval

<b>Sinflar</b>	<b>O‘quvchilar Soni</b>	<b>Javoblar soni</b>					
		<b>Yuqori</b>	<b>%</b>	<b>O‘rta</b>	<b>%</b>	<b>Past</b>	<b>%</b>
Tajriba	30	5/ 10	/33	18/15	/50	7/5	/17
Nazorat	29	5/6	/21	10/12	/31	14/12	/48

Ushbu jadvaldagi ma’lumotga ko‘ra tajriba guruhidan olingan natijalar nazorat guruhidagidan yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Tahlil natijasiga ko'ra chiqarilgan umumiy xulosaga tayanib, shuni qayd etish zarurki o'quvchi shaxsini shakllantirish, uning xarakter xususiyatini bilish va shu asosida maktab va oilaning yagona fikrga kelish juda muhim masaladir. Buning uchun sinf rahbarlari va ota-onalar har bir bolaning o'ziga xos shaxs ekanligini e'tiborga olib, shunga ko'ra harakat dasturini yaratib olishlari lozim bo'ladi.

Ota-onalar bilan olib borilgan tadqiqot natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ota-onalarning deyarli barchalari maktab va oila o'tasida hamkorlik bo'lishi shart deb hisoblaydilar. Ularga ham sinf rahbari bilan qanday hamkorlik o'rnatgansiz, degan savolimizga ko'pchilik ota-onalar ota-onalar majlislari va uyali aloqa vositasini qayd etishdi. Bu savolga ota-onalar va sinf rahbari bir xil yondoshganlar ya'ni amaldagi holat qanday bo'lsa, shuni qayd etishdi.

Ota-onalar tomonidan yuqorida qayd etilgan savollarga qaytarilgan javoblar mazmunini tahlil etish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bugungi kun ta'lim sohasi oldida dolzarb muammolaridan biridir.

2. Ota-onalarda farzandlarining tarbiyasi uchun maktab bilan aloqani mustahkamlashga nisbatan befarqlik mavjud.

3. Ota-onalar bola tarbiyasiga oid pedagogik bilimlarni faqat ota-onalar majlislarida olmoqdalar xolos.

Ota-onalarning javoblaridan ma'lum bo'ldiki, maktab va oila hamkorligini mustahkamlashda sinf rahbarlarining oilaga tashrifi umuman uyushtirilmaydi. Vaholanki, sinf rahbarlari har o'quv yilida kamida bir marta oilaga tashrif buyurishi va bola uchun yaratilgan sharoit, uni o'rab turgan muhit, o'quvchining bo'sh vaqtining to'g'ri taqsimlanganligi va boshqalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi darkor. Bu yo'lda ota-onalarga har bir maktabda ota-onalar uchun bola tarbiyasiga oid turli mavzudagi uchrashuvlar, davra suhbatlari, "Tajribali ota-onalar davrisida" mavzusidagi uchrashuvlarning uyushtirilishini belgilanishi va ularning o'tkazilishiga erishish ma'lum darajada bo'lsa ham muvaffaqiyat sanalar edi.



## UMUMIY XULOSALAR

### **Olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi xulosalarga keldik.**

1. Mamlakatimiz taraqqiyoti har tomonlama sog'lom, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash masalasi bilan bog'liq ekan, bu o'rinda oila va maktabning, xususan ota-onalar va o'qituvchilar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishi tadqiqot jarayonida o'z isbotini topdi. Negaki, jamiyatimiz va davlatimizning ta'lim jarayoni oldiga qo'yayotgan talabi ham barkamol avlod shaxsini shakllantirishdan iboratdir.

2. O'quvchi shaxsini shakllantirishda sinf rahbarining roli nihoyatda katta ekanligi va uning shaxsiga ham jamiyat tomonidan ma'lum talablar qo'yilishi olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar jarayonida ma'lum bo'ldi.

3. Sinf rahbari o'z faoliyati davomida ota-onalar bilan hamkorlik ishlash borasida bilim, tajriba, ijodkorlik, muamala madaniyati, keng duyoqarash sohibi bo'lishlik talab etiladi.

4. Amaliyot jarayonida olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, sinf rahbarlarini shaxsning rivojlanishi va shakllanishi borasidagi bilimlar bilan qurollantirish va faoliyatning zamonaviy usullari yuzasidan qarashlarini boyitish hayotiy zaruriyatdir.

5. O'quvchi shaxsini shakllantirish va yuksaltirishda sinf rahbarlari tomonidan tashkil etiladigan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ahamiyati katta bo'lib, u o'quvchi shaxsidagi ijobiy sifatlarni yuksaltirishning ishonchli va kuchli vositasidir.

6. Oila tarbiya maskani, hech bir tarbiya obyektini bolaga oilachalik ta'sir ko'rsata olmaydi, shu boisdan maktab va oila hamkorligi ishlarida ota-onalarga pedagogik bilim berish lozimligi tadqiqot natijalarida ayon bo'ldi.

7. O'quvchi tarbiyasiga oid ota-onalarga pedagogik bilim berishning eng samarali shakllari-bu davra suhbatlari, turli uchrashuvlar, ekskursiyalar, kitoblar namoyishi, treninglar, oilaga tashrif kabilari bo'lib, bulardan muntazam foydalanib borish faqat va faqat o'quvchi tarbiyasida yagona fikr bo'lishiga olib keladi.

8. Tajriba davomida sinovdan o'tkazilgan sinf rahbarining oilaga tashriflari o'quvchining oilasi va o'zi haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini yaratdi va sinf rahbarlari o'quvchiga qanday qilib tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkinligi metodikasiga ega bo'ldi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMK, 1997. – 29 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMK, 1997. –61 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.:“Ma'naviyat”, 2008, 171b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O'zbekiston”, 2011, 430.
7. Abdullo Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent., 1994 . –237 bet.
8. Amir Temur o'g'itlari.- T.: Navro'z, 1992.- 63 b. (Amir Temur vasiyati.-T.: G'afur G'ulom, 1991.-4 b.
9. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari.-T.:O'qituvchi,1995.-52b
10. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z.,T.: O'qish. 2-sinf uchun. “O'qituvchi”. 2012, 170
11. Hasanboyeva O. Inoyatova M., Ne'matova A., Odobnoma. 2-sinf uchun darslik. T.: “O'qituvchi” 2012, 76 b. .
12. Hasanboyeva O., Xasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi.- T.: O'qituvchi, 1997.- 248 b
13. Holiqova M., Ergasheva Sh. Odobnoma. 3- sinf uchun darslik. T.: “Yangi yo'l roligraf serves”, 2012.- 93 b.
14. Ibrohimov A. Bizkim o'zbeklar.-T.: Sharq, 2001.- 395 b.
15. Ibroximov A., X.Sultonov, N.Jo'rayev «Vatan tuygusi» T, O'zbekiston», 1996, 52-53 b.
16. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab, al-mufrad. T.,O'zbekiston. 1990,198 b.

17. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.- 133 b.
18. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat.- T.: Sharq, 2001.-160 b.
19. Matjonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. "Yangi yo'l roligraf serves". 2011,- 235 b.
20. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- T.: O'zbekiston, 2000.- 80 b.
21. Munavvarov A. Pedagogika. Pedagogika Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.- T.: O'qituvchi, 1996.- 200 b.
22. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 190 b.
23. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. T.: O'qituvchi, 1995.- 478 b.
24. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. T.: O'qituvchi, 1999.- 478 b.
25. O'zbek xalq maqollari.- T.: Sharq, 2003.- 510b. (T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov)
26. Ochilov M. Muallim-qalb me'mori. Saylanma.-T.:O'qituvchi, 2001.-430b
27. Ochilov M.O., Ochilova N.M. O'qituvchi odobi.-T.: 1997.-136 b.
28. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari.- T.: O'qituvchi, 1995.- 207 b.
29. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi.- T.: O'zbekiston, 1998.- 335 b.
30. Tulenov J. Hayot falsafasi.- T.: O'qituvchi, 1993.- 319 b.
31. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi.- T.: 1997.- 230 b.
32. Vatanni sevmog' iymondandur.- T.: Adabiyot va san'at, 1995.- 64 b.
33. Xoliqova M., Ergasheva Sh., Odobnoma. 4-sinf uchun darslik. "Yangi yo'l roligraf serves". 2011,- 92 b.
34. Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli.- T.: 1995.- 123 b.

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)

**Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga murojaat qilingan og'zaki savollar**

1. Hamkorlik deganda nimani tushunasiz ?
2. O'quvchi tarbiyasida hamkorlik zarur deb hisoblaysizmi ?
3. Ota-onalar bilan hamkorlikni qanday yo'lga qo'ygansiz?
4. Ota-onalar majlislaridan tashqari oila bilan yana qanday hamkorlikni amalga oshirib kelmoqdasiz?
5. Faoliyatingiz jarayonida bola tarbiyasida maktab va oila o'rtasida yagona talablar qo'shilishiga erishganmisiz?
6. O'quvchingiz oilaviy sharoiti bilan tanishganmisiz ?
7. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", maqolini izohlang?
8. Hamkorlik yuzasidan fikr-mulohazlaringiz ?

**Ota-onalarga murojaat qilingan og‘zaki savollar**

1. Bola tarbiyasida maktab bilan hamkorlik zarur deb hisoblaysizmi?
2. Maktab bilan hamkorlik qilishdan maqsadingiz nima?
3. Bola tarbiyasida kim ko‘proq mas’ul deb hisoblaysiz?
4. Ota-onalar majlislariga muntazam qatnashib kelayapsizmi?
5. Sinf rahbarining farzandingizga munosabati qanday?
6. Farzandingiz to‘g‘risida o‘qituvchilardan e’tiroz eshitsangiz, nima qilgan bo‘lardingiz?
7. Farzandingizni kundalik daftarini doimiy nazorat qilib borasizmi?
8. Farzand tarbiyasida kimdan ko‘p maslahat so‘raysiz?
9. Farzandingizni maktab va sinf rahbari haqidagi fikri qanday?

